

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMVAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHONSIYOSATI,TARIX VA FALSAFA FAKULTETI
XORIJIY MAMLAKATLAR TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

NIYOZOV DONIYOR BAXTIYOR O‘G‘LI

Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalari tarixi(XX asr ikkinchi
yarmi-XXI asr boshi)

5120300 – Tarix (Xorijiy mamlakatlar tarixi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiyrahbar:siyosiy fanlar nomzodi
Abullayev Nodir Abdulxayevich

Toshkent–2015

Mundarija

Kirish.....	3
1-BOB. Ikkinchi Jahon urushidan keyin arab dunyosidagi siyosiy o'zgarishlar sharoitida Turkiyaning mintaqaviy davlatlari bilan munosabatlari tarixi.....	8
1.1. XX asrning ikkinchi yarmidan keyin Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan munosabatlarining shakllanishi	8
1.2. Arab-Isroil mojarosi sharoitida Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilanmunosabatlari	15
1.3. Turkiya tashqi siyosatida islom omili	30
2-BOB. XXI asr boshida Turkiyaning Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari bilan hamkorlik aloqalarining o'ziga xos jihatlari.....	37
2.1. Turkiyaning Suriya, Eron va Iroq bilan aloqalarida kurd masalasi.	37
2.2. XXasr oxiri-XXI asr boshida Isroil-Turkiya hamkorligiga nisbatan arab davlatlarining munosabati.	42
2.3. G'arb davlatlarining Yaqin Sharq siyosatida Turkiyaning o'rni.....	54
Umumiy xulosalar.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	70

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.Mustafo KamolUsmoniylar imperiyasini tugatib Turkiyani respublika deb e'lon qilgandan so'ng G'arb andozasidagi davlat qurishga kirishdi. Bu yo'lda u G'arbga yaqinlashib Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirishda esa mutlaqo e'tiborsiz bo'ldi. Necha asrlar davomida Usmonli imperiyasi tarkibida bo'lgan davlatlar bilan aloqalar uzilib qoldi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiyaning G'arb ta'siriga tushibqolishi Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalarida aks etdi. Isroil davlatining tashkil etilishi va Turkiyaning musulmon davlatlari ichida Isroilni birinchi bo'lib tan olishi uning mintaqadagi obro'siga katta zarba bo'ldi. Turkiyaning tutayotgan yo'li o'zini mintaqadan itarish bo'ldi. Shu sababli Turkiya va arab davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonchga putur yetadi.

Shu o'rinda prezidentimizning Yaqin Sharq davlatlari orasidagi tartibsizliklarga bildirgan fikri o'rinlidir. "Qarama-qarshi tomonlarni murosaga keltirish uchun avvalambor ular o'rtasida yuzaga kelgan muammoni hal etishga qaratilgan o'zaro xayrixohlikka erishish zarurligini, aks holda ular o'rtasidagi barcha muzokaralar bir-biriga e'tiroz bildirishdan nariga o'tmay qolishi va bu holat cheksiz davom etaverishi mumkin¹"

Turkiyaning Yaqin Sharq mintaqasi yo'nalishidagi munosabatlarida Eron muhim o'rin tutadi. Turkiya Eronni Yaqin Sharq davlatlari qatorida ko'radi va mintaqa davlatlariga nisbatan siyosatida Eron yo'nalishini ham kompleks o'rganadi.

TurkiyaningYaqinSharqdaliderlikuchunharakatlarioqibatidaEronbilanaloqalarijiddiylashadi, chunkiikkaladavlatmintaqadayetakhibo'lishuchunuzoqyillardanberikurashibkelare di.Ikkinchi jahon urushidan keyin ikkala davlat hukumati tepasiga amerikaparast

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha Kengashning IV sammitida so'zlagan nutqidan. "Xalq so'zi" gazetasi. Toshkent. 21.05.15.

hukumat kelganidan keyin aloqalar bir muncha iliqlashadi. Ammo 1979-yilda Erondagi islom inqilobidan keyin aloqalar yana boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Turkiyaning Suriya bilan aloqalarida kurd masalasi muhim o'rin tutadi. Yana bir sabab ikki davlat sovuq urush davrida ikki qutb ta'siriga tushib qolishi ham ikki davlat aloqalari kelajagini belgilab berdi. Yuqoridagi sabablar Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalarida muhim o'rin tutib kelmoqda. Mazkur muammolarning qanday yechim topishi Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalarini belgilab beradi.

Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan aloqalarida Turkiyaning hozirda tartibsizliklar qurshovi ichida qolgan davlatlar bilan aloqalarning mustahkam emasligi, Turkiyaning G'arb manfaatlari ijrochisi sifatidagi harakatlari ham Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan aloqalariga salbiy ta'sir qildi.

XXI asr boshida Turkiyada hukumat tepasiga islom partiyalaridan birining kelishi va hukumat rahbarligiga Rajap Tayyip Erdog'anning kelishi Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan aloqalarida yangi bosqichni boshlab berdi. Erdog'an Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo'shilish yo'lidagi behuda harakatlaridan keyin mamlakat tashqi siyosatini qaytadan isloh qilmoqda. Yaqin Sharq davlatlari bilan tarixiy aloqalarni yo'lga qo'yimoqda. Turkiya hozirda mintaqa davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirmoqda va qaysidir manoda mintaqadagi liderlik uchun kurashmoqda.

Manbalarni o'rganar ekanmiz, Turkiya va Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari o'rtasidagi munosabatlar rivoji hozirgi kunda hech kimga sir emas. Ammo mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi aloqalarning tarixiy jihatlarini yoritib beruvchi alohida tadqiqotlar juda ko'p. Lekin mintaqadagi mojarolar yechimi, ular o'rtasida tarixiy aloqalarni tiklash haqida hali yoritilmagan tomonlari ko'p. Shu sababdan bu boradagi mavjud manbalarni tadqiq qilish, o'rganish, tahlil qilish va bunga ozmi-ko'pmi yechim izlash, istiqbolli tomonlarini ko'rsata olish hozirgi kunning muhim masalasidir. Shu o'rinda prezidentimizning Yaqin Sharqdagi davlatlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklarga bildirgan bir fikrini keltirib o'tmoqchiman. "Davlatlararo munosabatlardagi mojaro va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda

ham, millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlashda ham muvaffaqiyatga erishishning eng muhim sharti bo'lgan ishonch masalalariga barcha zamonlarda birdek ustuvor ahamiyat berib kelingani hech kimga sir emas. Lekin hozirgi davrda, bizni qurshab turgan dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan o'zgarib, unda yashayotgan xalqlar va davlatlar tobora bir-biriga bog'liq bo'lib va vaziyat o'ta noziklashib borayotgan bir paytda ishonch choralari mustahkamlashning tizim va mexanizmlarini ishlab chiqish, barqarorlikni saqlash va mojarolarning oldini olish borasida davlatlarning sa'y-harakatlarini yanada faollashtirishni talab etadi.”²

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: XX asr ikkinchi yarmi boshidan XXI asrgacha bo'lgan davrda Turkiya va Yaqin Sharq davlatlari munosabatlari tarixini o'rganish, xususan, Turkiya va Yaqin Sharq davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni chuqur yoritish, tahlil qilish va Turkiyaning mintaqadagi barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini yoritishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- XX asrning ikkinchi yarmida Turkiya va Yaqin Sharq davlatlari o'rtasidagi munosabatlar tarixini o'rganish.
- Turkiya va Yaqin Sharq o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish bosqichini yoritib berish.
- Yaqin Sharq muammosini hal etish borasida Turkiya tashqi siyosatini o'rganish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan munosabatlarning ayrim nazariy jihatlar hamda muammolarini yoritgan mutaxassislar sifatida Qosimov B., Ibragimov S., Kazakxonov X³ singari olimlarimizning asarlarida ko'proq Yaqin Sharqdagi terrorizm, uning Yaqin Sharq mintaqasiga, qolaversa, Markaziy Osiyoga ta'siri

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha Kengashga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida so'zlagan nutqi. “Xalq so'zi” gazetasi, iyun 17, 2006.

³Qosimov, B. Turkiya tarixi Toshkent, 2003.

Ибрагимова С. Международный терроризм как фактор угрозы безопасности Республики Узбекистан. Дисс, на соискание ученой степени канд, полит, наук. –Т., 2005. –118 с.

Казакханов Х. Международно-правовые аспекты борьбы с финансированием терроризма. Дисс, на соискание ученой степени канд полит наук. –Т., 2008. –134 с.

yoritilgan. Yaqin Sharqdagi tartibsizliklarning ildizi, kelib chiqish sabablari, uning kelajakdagi xavfi ta'siri o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorijiy tadqiqotchilardan Keriyeв N.G., Knyazev A., Belokreniskiy V., Shaban Kardash, Balashov Y.A., Vagin M.V., Fahriddin So'mer, Bahri Yilmaz, Rusen Chaqir, Steven Kuk, Kenan Aksu⁴kabi sharqshunos olimlarning ilmiy ishlari va maqolalarida Turkiya va Yaqin Sharq tarixi, ichki nizoli jarayonlari va xalqaro munosabatlaridagi muammolarining ayrim jihatlariga e'tibor qaratilgan. Turk tarixchilari ko'proq Turkiyaning G'arb bilan aloqalari, mamlakatning Yevropa ittifoqi bilan yo'lga qo'yilgan qalin aloqalarini va Yaqin Sharqdagi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini yoritganlar. Rus tarixchilari esa Turkiyani ko'proq Yaqin Sharqdagi barqarorlikni saqlashdagi o'rni, mamlakatning G'arbning Yaqin Sharqdagi manfaatlari ijrochisiga aylanib qolganini yoritganlar. G'arb tarixchilari esa Turkiyani ko'proq Suriya, Eron, Iroq, Isroil, Misr bilan aloqalari va kurd masalasi yuzasidan paydo bo'lgan davlatlar o'rtasidagi muammoli vaziyatlarni yoritishgan. Lekin G'arb tarixchilari arab-isroil urushlari uning oqibatida paydo bo'lgan muammolarga ko'p ham ahamiyat berilmagan. Kam o'rganilgan masalardan asosiysi bu Turkiyaning Yaqin Sharq mintaqasidagi barqarorlikni saqlash yo'lidagi o'rni kam yoritilgan

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning davlatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tamoyillari, mintaqaviy xavfsizlik masalalari keng va har tomonlama ob'ektiv yoritib berilgan asarlariga: "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari"⁵, "O'zbekiston XXI asrga

⁴Keriyeв H.G., Международные отношения на Ближнем востоке в XX веке Нижний Новгород 2002.-144с.
Егоров А.А., Новейшая история стран Азии и Африки (1945–2004):— Ростов н /Д : Феникс, 2005. -574с.
Kenan Aksu, Turkey A Regional Power in the Making Edited published-Cambridge, 2013, p-30.
Shaban Kardash. Turkey and Near Abroad. Vashington, 1998, p-72.
Bahri Yilmaz, Foreign Policy and the Arab Spring. London. 2003. p-327.
Rusen Cakir The Reemergence of Hizballah in Turkey, Istambul, 2007, p-26.
Steven A. Cook, U.S.-Turkey Relations, New York, 1995, p-254.
William Harris Turkey and it's neighbours, London, 2014. p-11.
Şaban Kardaş Turkey and the Gulf Dialogue in the Middle East, Istambul, 2012 p-8.

⁵ I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari" Toshkent. 1997.

intilmoqda”⁶, “Tinchlik va xafsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq.”⁷va xalqaro tashkilotlar doirasida O‘zbekiston pozitsiyasi yuzasidan so‘zlagan nutqlariga tayanildi.Shuningdek,mahalliy va chet ellik mutaxassislarningasarlari,risola va ilmiy maqolalari tashkil etadi.

Bitiruvmalakaviy ishning ob’ekti. TurkiyavaYaqin Sharq davlatlari (Suriya, Iroq, Isroil, Misr, Eron) davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro ikki tomonlama munosabatlarning shakllanishi hamda yangi bosqichga ko‘tarilishi.

Bitiruvmalakaviy **ishningpredmeti.** TurkiyaRespublikasivaYaqinSharqdavlatlario‘rtasidagimunosabatlardabarqarorlikni ta’minlash, xavfsizlikmuammolari, siyosiy-iqtisodiyasalalarningo‘rni.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi materiallardan “Tarix” va boshqa gumanitar yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma, ma’ruza matni sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi:

Tadqiqot ishi kirish, oltita paragrafni o‘z ichiga olgan ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

⁶I.A. Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” Toshkent. 1999.

⁷I.A. Karimov “Tinchlik va xafsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq.” Toshkent. 2002.

1-BOB. Ikkinchi Jahon urushidan keyin arab dunyosidagi siyosiy o'zgarishlar sharoitida Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan munosabatlari tarixi.

1.1. XX asrning ikkinchi yarmidan keyin Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan munosabatlarining shakllanishi

Yaqin Sharq –Osiyoning g'arbiy va janubiy-g'arbiy, hamda Afrikaning shimoliy sharqidagi hududlarni o'z ichiga oladi.Yaqin Sharqda Misr, Sudan, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Iordaniya, Iroq, Isroil, Falastin,Kipr, Kuvayt, Livan,Saudiya Arabistoni, Suriya, Turkiya, Ummon,Yaman, Qatar kabi davlatlar joylashgan.G'arb adabiyotlarida⁸ Yaqin Sharq hududini Eron va Afg'oniston bilan birga O'rta Sharq deb qabul qilingan. XIX asr va XX asr boshlarida Yaqin Sharq tushunchasiga Usmonli turk imperiyasi,jumladan,Bolqon yarim oroli ham kiritilgan.Yaqin Sharq atamasi birinchi bo'lib amerikalik admiral A.Mexen tomonidan fanga kiritilgan. Mexen 1900-1902-yillarda bu mintaqaga sayohat uyushtirad.Mexen Yaqin Sharqni G'arb uchun “hayotiy zaruriyat” deb ataydi.Endi esa tashqi siyosat masalasiga to'xtalsak.Tashqi siyosat bu davlatning xalqaro arenada boshqa subektlar bilan xalqaro munosabatdagi aloqalaridir.Xalqaro aloqalar davlatlar,ittifoq,turli maqsaddagi birliklar,xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan amalga oshiriladi.Tashqi siyosat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.Milliy manfaatlar bu xalqning xohishi,milliy xavfsizlik va o'z suverenitetini himoya qilish,davlat sifatida xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lish,ichki rivojlanish uchun tashqi sharoitlarni vujudga keltirish,aholining yashash sharoitini ko'tarish demakdir.Mamlakatning xalqaro maydonda qanday mavqeni egallashi uning geopolitik joylashuviga va hududdagi siyosiy barqarorlikka bog'liq.

XX asrning ikkinchi yarmi mobaynida Yaqin Sharq mintaqasida turk faktori muhim rol o'ynadi.Turkiyaning ichki imkoniyatlari to'la yetmasa ham mintaqada siyosiy liderlik uchun davo qila boshladi.Mintaqada muhim rol o'ynash

⁸ Patricia Carley A Conference Report Turkey's Role in the Middle East, New York 2002. P-247.

uchun xalqaro maydonda o'zining siyosiy pozitsiyasini kuchaytirish uchun harakat qildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaqin Sharq tarixi va siyosatida 4masala yuzaga chiqd:

- 1) Arab Bahorining salbiy oqibatlari,
- 2) Arab-Isroil to'qnashuvlarining davom etishi,
- 3) Eron atom dasturi mavzusidagi o'zgarishlar,
- 4) G'arb davlatlarining mintaqadagi vaziyatga salbiy ta'siri,

Lekin barcha mulohazalar bunga o'xshash masalalar ustida to'xtalmoqda. Albatta Yaqin Sharqdagi shahmat o'yinini boshqarayotgan ikki derjavani⁹ (keyinchalik Xitoy ham qo'shila boshladi) hisobga olish kerak. Mintaqaning global saviyadagi aktyorlari AQSH, Rossiya, Yevropa va Xitoy ekan. Mintaqaviy saviyada esa boshda Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Isroil, Qatardir.

Keyingi davrlar Yaqin Sharq siyosatining ushbu davlatlar tomonidan shaklga solinganini ham aytib o'tish kerak.

XX asrning ikkinchi yarmida insoniyatning eng "og'riqli nuqtalaridan" biri bu arab-isroil muammosi bo'lib qolmoqda. Bundan manfaatdor davlatlar yaratgan bu qarama-qarshilik to'xtamas ekan mintaqadagi aholi o'z qoni bilan xun to'lab boraveradi. So'ngi paytlarda Yaqin Sharq masalasi negizida 2003-yilgi AQSH ishg'oli va undan keyin maydonga kelgan o'zgarishlar joy olmoqda. AQSHning nohaq va muvaffaqiyatsiz Iroq ishg'oli, hududda AQSH va G'arbg'a qarata norozichiliklarni orttirganidir. Bu ham radikal guruhlar, ham xalqning harakatida kuzatilmoqda. Misol, Eron atom kuchiga ega bo'lish harakatlari va avj olib borayotgan Arab o'lkalaridagi isyonlardir. Bunda "arab bahori", Iroqning siyosiy jihatdan parchalanishini, kurd siyosiy harakatlari, "HAMAS"ning Isroilga qarata hujumlarning avjiga chiqqani va Isroil bilan Falastin o'rtasida G'azo sektoridagi jangovor harakatlarni aytishimiz mumkin. Shunday qilib bu davrda Eronning harbiy, texnologik va siyosiy ta'sirining butun Yaqin Sharq davlatlarini tashvishlantirayotgani, kurdlar izlagan siyosatning Iroq va Turkiyani bezovta

⁹Ikkinchi jahon urushidan keyin ikki buyuk davlat Sobiq Sovet davlati va AQSH nazarda tutilmoqda.

qilishi, Falastin masalasining yechim topmayotganligi, “Al Qoida” terroristik tashkilotining bu o’lkalarga Avg’onistondan tarqalishi global ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiyaning strategik o’rni oshdi. Turkiyaning bu siyosatini Otaturk yaratgan edi. U yangi respublika uchun ikkita narsani: g’arblashish va modernizatsiyani¹⁰ muhim deb hisobladi. Otaturk mamlakatni avval Usmoniylar imperiyasiga qaram bo’lgan, uzoq asrlardan buyon hamkorlik qilib kelayotgan arab davlatlaridan ham butunlay uzoqlashtirdi. U mintaqa davlatlariga nisbatan imperialistik kayfiyatda bo’lmadi. U yangi islohotlar o’tkazish bilan birgalikda mamlakatda dinning davlatga ta’sirini butunlay bartaraf etdi va arab alifbosi o’rniga lotin yozuviga asoslangan yangi alifbo joriy etdi. Natijada yangi avlodlarni tarixdan ma’lum ma’noda uzib qo’ydi chunki, bu davrgacha bo’lgan barcha manbalar arab tilida yozilgan edi.

Arablarning Turkiya bilan aloqalar yomonlashishining ilk sababi bu Birinchi jahon urushi davrida sobiq Usmoniylar mustamlakalari ozdlikni qo’lga kiritish uchun Angliya tarafga o’tib oladi. Shu usulda Turkiyaga qarshi ozodlik uchun kurasha boshlaydi. Lekin, natijada keyinchalik Angliya ta’siriga tushib qoladi. Hozirda Otaturkning reformalari¹¹ natijasida Turkiya va arab davlatlari bir-biriga qarshi turib qoldi. Turkiyaning XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi Yaqin Sharq davlatlariga e’tiborning kuchayishi faqat Yaqin Sharqning geopolitik jihatdan o’rni oshib ketayotganligida emas. Bunga yana qator sabablar bor. Turkiyaning janubi-sharqidagi kurdlar muammosi, Suriya bilan suv masalasi, Isroil va Falastin muammosi Turkiyani bu mintaqadagi e’tiborini yana kuchaytirdi. Bu faktorlar qanchalik muhim ahamiyat kasb etmasin Turkiya G’arbga yaqinlashishni har doimgidek davom ettiradi.

Turkiya va Misr o’rtasida dastlabki aloqalar XX asrning 60-yillaridan boshlandi. Dastlabki savdo va boshqa bitimlar Turkiya hukumatining 1966-yili Misrg tashrifi chog’ida Qohiradagi kelishuvda imzolangan, ikkinchisi esa Anqarada 1976-yilda imzolangan. 1996-yildagi tomonlarning Qohiradagi uchinchi

¹⁰Modernizatsiya – zamonaviylashtirish, yangilash.

¹¹Reforma – isloh qilish, o’gartirish.

uchrashuvida katta natijalarga erishildi. Kelishuvlar ikki tomonlama bojsiz savda tizimi, texnik va iqtisodiy hamkorlik haqida kelishib olishdi. Bu shartnoma 2007-yilda to'la kuchga kirdi.

O'zaro tashriflar davomida imzolangan shartnomalar o'z ichiga sanoat mahsulotlar erkin savdo, xavfsizlik, xizmat ko'rsatish, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash va boshqa sohalarni o'z ichiga olgan.

Eng muhim shartnomalardan biri 2009-yilda imzolangan Turkiya, Misr va Suriya mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch to'g'risidagi shartnoma bo'lib unda turizmni rivojlantirishda hamkorlik qilish va yo'l transportini rivojlantirish to'g'risida boradi. Ikkala davlat iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish bo'yicha qator biznes forumlar o'tkazdilar.

Turkiya va Iordaniya o'rtasidagi dastlabki aloqalar ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlandi. Ikkala davlatning 1947-yildagi "O'zaro Do'stlik" to'g'risida shartnoma imzolanishi va shu yili Iordaniya poytaxti Ammanda Turkiya elchixonasining ochilishi bilan diplomatik aloqalar boshlandi.

Bugungi kungacha ikki davlat o'rtasida qirqdan ortiq shartnoma va memorandumlar imzolangan. 2009-yilda bojsiz savdo va erkin viza tizimining o'rnatilishi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. Erkin savdo shartnomasi 2011-yidan kuchga kirdi.

Ikkala davlat savdo aylanmasi 2013-yilga kelib 815 million dollarga yetdi. Turkiyaning Iordaniyaga kiritgan investitsiyasi 300 million dollarga yetdi. Umumiy shartnomalar qiymati esa 2.4 mlrd ga yetdi¹².

Turkiya va Iordaniya hududdagi o'zaro barqarorlikni saqlashda katta amaliy ishlar qildi. Madaniy aloqalar ikki davlat o'rtasida muhim o'rin tutadi. Turkiya o'z madaniyatini yoyishga katta harakatlar qildi. Qator turk tili kurslari ochildi. Hatto, 2010-yilda Iordaniyadagi katta universitetlardan birida turk tili bo'limi ochilishi Turkiya hukumatining katttta yutug'ilaridan biri bo'ldi. Hozirda Iordaniyada uch yarim mingdan ortiq turk fuqarolari yashaydi.

¹²Turkiya Tashqi Ishlar vazirligi sayti.

Turkiyava Falastinaloqalari. Turkiya Falastin davlatini hali tuzilmasdan “Falastin Ozodlik Tashkiloti” harakati vaqtida 1975-yilda tan olgan va birinchilardan bo’lib bu davlatning mustaqilligini 1988-yilda tan olgan.

Falastinda aholining yashash sharoitini yaxshilashda, YUNESKO a’zosi bo’lishida, BMT da munosib o’rin egallashida Turkiyaning hissasi katta bo’ldi. Falastinning barcha sohalarining rivojlanishida Turkiyaning harakati katta bo’ldi. Maqsad bu davlat mintaqada muhim o’rin tutardi. Turkiyaning esa mintaqada tasirini oshirish uchun bu juda yaxshi imkoniyat bo’lib xizmat qilar edi. Turkiya hukumati Falastindagi qochoqlarni oziq-ovqat va mablag’ bilan taminlaydi. Turkiya hukumati biladiki bu yerdagi barqarorlikni tiklash uchun eng oqilona yo’l bu iqtisodiy barqarorlik ekanligini. Bu siyosat davlatning xavfsizligiga ham tasir etadi albatta. Hatto, Turkiya mintaqadagi vaziyatni yaxshilash uchun Isroil va Falastin Tashqi iqtisodiy ishlar vazirliklari bilan Istanbulda iqtisodiy forum ham o’tkazadi.

Turkiya va Kuvayt aloqlari 1969-yil Kuvayt poytaxti Bayrut shahrida Turkiya elchixonasining ochilishi bilan ikki davlat aloqalari boshlandi. 1972-yilda esa Anqarada Kuvayt elchixonasi ochildi. 2005-yildan esa Istanbulda Kuvayt konsulligi faoliyat ko’rsata boshladi.

Kuvayt Turkiyaning ulkan manfaatlari joylashgan hudud bo’lib Turkiyani bu mamlakat bilan aloqalarni rivojlantirishdan doim manfaatdor.

Turkiyaning bu davlatdan import hajmi 2010-yilda 2014 mln dollarga, eksport hajmi esa 395 mln dollarga yetdi. 2010-yilda umumiy savdo aylanmasi 610 mln dollarga yetdi.

Turkiya eksportini yengil sanoat, gilam, sut va sut mahsulotlari, texnikalar va ehtiyot qismlari tashkil qilsa Kuvaytdan esa kimyoviy moddalar, rangli metallurgiya va neft mahsulotlari tashkil qiladi. Turkiya kompaniyalari Kuvaytda ham ko’plab serdaromad sohalarda katta nazoratni o’rnatgan.

Turkiyaning Qatarga eksportini asosan temir-metall mahsulotlar, elektron mahsulotlar va jihozlar, texnika va ehtiyot qismlari, tekstil va oziq-ovqat

mahsulotlaridir.Qatardan esa asosan gaz va neft maxsulotlari,polyitelin va kimyoviy maxsulotlarni import qiladi.

Qanday qilib Arab davlatlari bilan Turkiya o'rtasida mustahkam aloqalarini yo'lga qo'yish mumkin degan savol haligacha bahs-munozarada. Turkiya uzoq vaqtdan beri ikkilanish yo'lida ketmoqda.Ma'lum davr hokimiyatga diniy partiya rahbarlari kelib Yaqin Sharq bilan aloqalarni yangitdan yo'lga qo'yish,islom ta'sirini oshirish maqsadi bilan ish olib brogan bo'lsa, ma'lum vaqtdan keyin Otaturk qarashlari tarafdorlari G'arbning ta'sirida yana g'arparastlik siyosatini boshlaydi.

Turkiya uchun qaysi biri istiqbolli yo'l? Regionda asosiy o'rinni egallaydimi yoki mintaqada asosiy ijrochilardan biri bo'lib qolaveradimi.G'arb an'anasi bilan qorishgan hayot yoki islom,Sharq yoki G'arb,Yevroitifoqqa qo'shilish yoki Yaqin Sharqdagi liderlik.Hukumat Otaturkdan beri hali yakdil qarorga kelinganicha yo'q.Hukumat qanday qaror qilishni bilmayapdi va muhim qarorlarni qabul qilishdan oldin Turkiya hukumati bunga AQSH va Yevropaning munosabat bildirishini kutib keldi,qaysidir manoda izn so'ragandek taassurot uyg'otdi.Yevropa Turkiyani o'zining Yaqin Sharqdagi bosh ijrochisi bo'lishni,Yaqin Sharqdagi tashkilotlar bilan ikki mintaqada o'rtasida vositachilik qilishini xohlaydi,masalan: Eron,XAMAS, Xizbulloh kabi. AQSH ning Turkiyadagi sobiq elchisi shunday degan edi."Turkiyadagi harbiy to'ntarishlar AQSH ning ta'siri bilan islomdan uzoqlashtirib turish uchun amalga oshirilgan edi¹³.

AQSH milliy xavfsizligi sobiq konsuli Ellin Laipson shunday deydi.Ikkala tomon o'rtasida aloqalarni yaxshilash uchun quyidagi uchta faktorga e'tiborimizni qaratishimiz kerak¹⁴.

Birinchi, Bunda Turkiyaning kelajagi uchun juda muhim ikki masala yotadi. Mintaqadagi kurdlar muammosi Eron,Iroq, Suriya,shuningdek, Turkiyani

¹³

Saygi Ozturk, Hürriyet gazetesi (Istanbul), April 16, 2007.

¹⁴ Davutog'lu A. Principles of Turkish Foreign Policy and Regional Political Structuring- Turkey Policy Brief Series. 2012. № 3. P. 3.

kelajagi uchun jiddiy xavf tug'diradigan masaladir.Yana biri, islomning siyosiy lashuvi va siyosiy urushlar ham Turkiyaning kelajagi uchun katta xavf olib kelishi mumkin.

- 1) mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar. Turkiya butun neft va gazni Yaqin Sharqdan import qiladi. Bu ham muhim faktorlardan biri.
- 2) Oshib borayotgan mintaqaviy xavf ularning birgalikda harakat qilishini taqozo etmoqda.

Mutaxassislar¹⁵ Turkiyaning kelajakda qanday tashqi siyosat olib borishi bo'yicha o'zlarining qarashlarini bildirib keladi.Bildirilgan fikrlar bo'yicha Turkiyada uchta senariy bor.

- 1) Turkiyaning eski siyosatini-ya'ni G'arb bilan ,xususan, AQSH bilan aloqalarini davom ettirish va uning mintaqadagi jandarmi vazifasini faxr bilan ijro etish.
- 2) O'zining mustaqil tashqi siyosatini boshlash. Panturkizm g'oyalari asosida turkiy xalqlarga siyoiy ta'sir o'tkazish.
- 3) Mamlakatda islomning qayta kuchayishi natijasida Turkiyaning Yaqin Sharqqa e'tibor qaratishi.

Eski Usmonli davridagidek mintaqadagi davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish.Mintaqadagi iqtisodiy baquvvat davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish,ular bilan birgalikda mintaqada barqarorlik o'rnatish.

Robins Turkiyaning mintaq davlatlari bilan aloqalariga xalaqit beradigan beshta sababni sanab o'tadi.

- 1) Turkiyada siyosiy qarashlarning turli xilligi. O'tgan asrda mamlakatda bir necha marta siyosiy kurashlar bo'lib o'tdi.
- 2) Turkiyaning geografik jihatdan chetda joylashganligi.
- 3) Yaqin Sharqning Turkiyaga Kavkaz, Kiprdan ko'ra nomuhimligi.

¹⁵William Harris Turkey and it's neighbours. New York. 1995. p-254.
Shaban Kardash Turkey and New Abroad. London. 1997. p-372.

4) Turkiya agar qalin hamkorlikni yo'lga qo'ysa mintaqadagi kurdlarning birlashuvi ham sodir bo'ladi, yana bir sabab Turkiya Saudiya Arabistonining Turkiyadagi islomni qo'llab-quvvatlashidan xavotir oladi. Saudiya katta iqtisodiy imkoniyatga ega bo'lib, unung harakati jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

5) Rossiyaning Bolqonda va Yaqin Sharqda real kuchga qaytadan to'layotganligi Turkiya tashqi siyosatining Rosssiya tomondan bosimga uchrayotganidir¹⁶. Rossiyaning Qorabog'dagi, Bosniyadagi harakatlariga Turkiya yon berishdan o'zga iloj topolmadi. Lekin shunga qaramasdan Turkiya mintaqadaga ko'pgina tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi. Ushbu regiondagi davlatlar Turkiyaga mintaqada yetakchi harbiy kuch va iqtisodning asosi bo'lishga yo'l qo'yishmaydi.

Xulosa qolib aytganda. Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiya va Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalari bir tekis kechmadi. Bunga Turkiyaning yangi Isroil davlati bilan aloqarni yo'lga qo'ygani sabab bo'ldi. Lekin Eron bilan aloqalar Erondagi islom inqilobigacha yaxshi davom etdi. Iroq bilan esa 1958-yil Iroqdagi inqilobdan so'ng butunlay yomonlashib ketdi. Bunga Iroqning "Bag'dod pakti"dan chiqishi va SSSR ta'siriga o'tib qolishi bo'ldi. Suriya bilan esa aloqalari hozirga qadar ziddiyatligicha qolmoqda. Bunga Suriyaning SSSR tarafida bo'lishi, Turkiyadagi kurd yetakchilariga boshpana berishi sabab bo'ldi. Misr bilan ham aloqalar taurli davrda turlicha kechdi. Misr hukumati Turkiyaning Kipr masalasida, Isroil bilan hamkorligiga nisbatan o'zining qat'iy pozitsiyasida qoldi. Turkiyaning bu davrda Yaqin Sharq davlatlari ichida birortasi bilan aloqalari bir tekis kechmadi.

1.2 Arab-Isroil mojarosi sharoitida Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan munosabatlari

Turkiyaning Iroq bilan aloqalari. "Sovuq urush" tugaguniga qadar boshqa arab davlatlariga qaraganda yaxshi edi. Ikki davlat kurd muammosi bo'yicha

¹⁶Approach to Bridging the Divide Between Islam and the West // Clash or Cooperation of Civilizations?: Overlapping Integration and Identities , W. Zank. Farnham: Ashgate, 2009. p-82.

hamkorlik qildi. Chunki Iroqda ham ko'psonli kurdlar yashar edi. Keyinchalik Iroqning Kuvaytga bostirib kirishi bilan Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yomonlashadi. Turkiya AQSH tashabbusi bilan Iroqqa qarshi embargo joriy qilishda birinchilardan bo'lib ovoz berdi. Iroqning Yevropaga o'tgan neft quvurlarini yopib qo'yadi. Buning natijasida Iroq katta miqdorda zarar ko'ra boshlaydi. XX asr oxirlaridayilda Iroq Turkiyaning eng katta ikkinchi eksportchi davlati bo'ldi. Turkiya o'zining katta kompaniyalari bilan Iroqdagi xomashyoga boy hududlar uchun raqobatlashib kelmoqda. Turkiya Iroq neftini xalqaro bozorga chiqaradigan asosiy yo'nalish mashrutlaridan biri hisoblanadi. Iroqning shimolida joylashgan terroristik tashkilotning Turkiyaga kichik hujumlar qilishi ikki davlat aloqalarining sovuqlashishiga olib keldi. Iroq shimolidagi kurdarning ham mustaqillik istab faollashishi Turkiyaning ham hushyor bo'lishga chaqirdi, Chunki Turkiyada o'n olti milliondan ortiq kurdlar yashaydi. Shuning uchun Turkiya hukumati Iroqqa kurdlar harakatini bostirish uchun katta yordam berdi.

Asosiy faktorlardan yana biri shuki-AQSH ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yaxshi tomonga o'zgarishini xohlamaydi. Chunki G'arbning bu mintaqaga o'z ta'sirini o'tkazish uchun doim tartibsizliklar bo'lishi ma'qul. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu mintaqada vaziyat keskin o'zgardi. Bunga Falastin va Isroil davlatlarining tashkil etilishi bo'ldi. BMT katta davlatlarning ta'siri bilan ikki davlat tuzishga qaror qildi, lekin bu davlatlar hududi va boshqa zarur mexanizmlar haqida o'ylamadi. Oqibatda, hozirgacha ikki davlat o'rtasida urush tinchigani yo'q. Bu yahudiy davlatiga albatta arab davlatlari chidab turolmas edi chunki, Isroil musulmon davlat hisoblanmas arab davlatlari esa o'zlarining biqinida bu davlatni ko'rishni istamasdi. Natijada ko'pgina arablar Isroilga qarshi kurasha boshlaydi. Bu voqealardan keyin Arab Ligasi tuziladi. Bu tashkilot 1945-yilda 22 arab davlati asosida tuzildi. 4 davlat Hindiston, Brazilya, Venisuela, Eriya kuzatuvchi maqomida qatnashadi. Turkiya va Eron ham bu tashkilotga kuzatuvchi maqomida qatnashish niyatini bildirdi lekin o'sha paytda arab davlatlari bilan aloqalarning yomonlashib ketgani, ayniqsa, Iroq, Misr, Suriya

bilan, Liga davlatlarining noroziligiga sabab bo'lib qabul qilinmadi¹⁷. Lekin keyinchalik Turkiyaga xayrihoh bo'lgan davlatlar Turkiya va Liga davlatlari aloqalarini yaxshilashga harakat qila boshladi. Arab davlatlari bilan aloqalari sovuqlashib ketdi. Arab-isroil urushlari esa Turkiya tashqi siyosatida keskin o'zgarish yasadi.

Turkiyaning bu mintaqada o'sib borayotgan manfaatlari uning Ligadagi davlatlar bilan aloqalarini yaxshilashga undardi. Agar Turkiya Arab Ligasidagi davlatlar bilan keng aloqalarni yo'lga qo'ysa mintaqadagi muammolarning hal qilinishi ancha osonlashardi. Mintaqaga ishlariga aralashish uchun yaxshi vositaga ega bo'lardi. Chunki Turkiya bu davlatlar bilan qadimdan hamkorlik qilib kelgan. Shuning uchun, Turkiyaning ham foydasini hisobga olish kerak.

Turkiya AQSH bilan yaqinlashishi va AQSHning arab davlatlariga tasir o'tkazishning bir vositasi bo'lib qoldi. Lekin hamma arab davlatlari ham Turkiya va Eronning mintaqadagi muhim rolga qaramasdan ularni mintqa ichidagi muammolarga yechim topishdagi harakatlarini ko'p ham qo'llab-quvvatlayvermadi. Turkiya va arab mamlakatlari orasida kelajakda aloqalarni qayta tiklash uchun uch muhim jihatni e'tiborga olish kerak:

- 1) Fuqaroviy va harbiy hamkorlikni yo'lga qo'yish
- 2) Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish
- 3) Tomonlarning biznes hamkorligini rivojlantirish.

Turkiya mintaqadagi eng yirik davlatlardan biri Eron bilan ayniqsa ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ldi. Eronning Sovet davlati bilan hamkorligi Turkiyaga katta xavotirlarni keltirib chiqardi. Turkiya esa G'arbga yuz o'girdi va ikkinchi jahon urushi tugashi bilan NATO ga a'zo bo'ldi. Bu orqali Sovet davlati va Erondan kelayotgan xavf ehtimolini yo'qotdi. Turkiyaning Kavkaz va Yaqin Sharqdagi ikkala davlat raqobati va Eronning shia oqimiga e'tiqod qilishi Turkiya bilan hamkorlikka to'sqinlik qilgan muhim sabablardandir. Eronning Atom bombasini yaratishga urinishi esa ikki davlat o'rtasida sovuqchilikni kuchaytirib

¹⁷ "Türkiye'de Radikal İslamcılık ve İran Bağlantısı" (Radical Islam in Turkey and the Iranian connection) in Sami Oguz and Rusen Cakir, Hatemi'nin İranı. Khatemi's Iran) (Istanbul: İletişim, 2000), p-278.

yubordi. Turkiya hukumati yonginasida azaliy raqobatchisining bunday xavfli qurolga ega bo'lishini aslo istamas edi. Natijada Turkiya AQSH bilan birga Eronni iqtisodiy cheklovlar qo'llash taklifini bir tomondan qo'llasa ikkinchi tomondan to'la qo'shila olmasdi, chunki Turkiya Erondan katta miqdorda gaz va neft sotib olar edi. Lekin birinchi o'rinda xavfsizlik edi. Turkiya Suriya masalasida o'zining ayblovlari va qattiq pozitsiyasi bilan doimiy pozitsiyasini saqlab kelmoqda.

Turkiyaga tutashgan yana bir chegaradoshdavlat Suriya ham Turkiya bilan aloqalarni haligacha yaxshila olmayapdi. Ikkala davlat hukumatlari bir-biriga juda qarama-qarshidir. Turkiya hukumati Suriyadagi Hafiz va uning o'g'li Bashar Asadlarni hukumatini dektatorlikda ayblab xalqqa ayniqsa suniy mazhabdagi fuqarolarni qattiq qiynayotganini, suniylarga nisbatan kimyoviy qurollardan foydalanayotganini aytib keladi¹⁸.

Bashar Asad hukumatni 2000-yilda otasi Hafizdan qabul qilib olgan va otasining rejimini davom ettirayotganini aytib keladi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga xolisona yondoshadigan bo'lsak Turkiyaning Suriyaga nisbatan siyosatida AQSH manfaatlarini aks etganligini ko'ramiz. Chunki Suriya geopolitik jihatdan muhim ,qolaversa, Sovet ittifoqi bilan yaxshi aloqada edi va Sovet davlatining arab davlatlariga bevosita tasir o'tkazish uchun muhim ahamiyat kasb etardi. AQSH esa Suriyadagi muxoliflarni qo'llab keladi.

Turkiya ayniqsa NATO ga a'zo bo'lgandan keyin rasmiy Bag'dod, Damashq va Tehron bilan doimiy sovuq munosabatlarini saqlab keldi. Turkiya tashqi siyosatida Liviyadagi Kaddafiy, Suriyadagi Bashar Asad,Erondagi Ahmadinajot rejimini qulatish maqsadini ko'rishimiz mumkin edi. O'z-o'zidan savol tug'iladi. Nega Turkiya hukumati bu davlatlardagi rejimlarni ag'darishni xohlaydi. Turkiya respublika bo'lgandan keyin butunlay G'arbga og'di, G'arb andozasida davlat qurmoqchi bo'ldi, Chunki Otaturk Yaqin Sharqdagi davlatlar kabi diniy davlat qurmadi, balki u hozirda sodir bo'layotgan diniy muammolarni oldindan ko'ra bilgandir, balki, rivojlanishda dinning omilini hisobga olgandir.

¹⁸ Some examples of periodicals published by young Islamists between 1985 and 1990 follow: Adımlar, Ak-Doğuş, "Dünya" gazetasi. 2006. P-65.

Turkiyaning Yaqin Sharqdagi manfaatlari 80-yillardan keyin kuchaya boshladi. Turkiyaning rivojlanib borayotgan sanoati uchun ham bozor ham xomashyo zarur edi. Bunday manfaat Turkiyaning arab davlatlari bilan aloqalarni kuchaytirishni talab qilardi. Turkiya hukumati bayonotlarida shunday jummalarni ko'p takrorlanishini e'tibordan qochirmasligimiz kerak: Turkiya tashqi siyosatda mutlaqo mustaqil, tashqi va ichki siyosatini mutlaqo erkinlikda va hech qanday tashqi tasirlarsiz olib boradi deyiladi. Turkiyaning bunday jummalarni tez-tez takrorlashiga dunyo mamlakatlarining uni AQSHning tasiri ostidaligi deb aytilishi sabab bo'lgan. Haqiqatan ham, Turkiya NATOga a'zo bo'lgandan so'ng butunlay AQSH siyosati ijrochilaridan biri bo'lib qoldi. Bunga qator sabablar bor.

Turkiya va Eron azaliy raqib bo'lib Usmoniylar va Safafiylardan beri jiddiy raqobatda bo'lib kelgan. Ikkala davlat o'rtasida hududlar uchun, siyosiy ustunlik uchun kurashib kelishgan. Yana bir jiddiy sabab ikkala davlat o'rtasida islomning turli mazhablariga e'tiqod qilishidir. O'rta asrlarda din omili mintaqada kuchli bo'lgani uchun din xuddi ilk o'rta asrlardagi Yevropada xristianlik kabi davlat siyosatiga katta ta'sir o'tkaza olgan. Hatto davlat siyosati dindan kelib chiqib belgilangan. Usmoniylar keyinchalik Turkiya islomning suniy mazhabiga e'tiqod qilsa, Eron shia mazhabiga e'tiqod qiladi. Shuning uchun ham ikkala davlat bir-biri bilan uzoq vaqt urushib kelishgan. Chunki dinda ikkala mazhab bir-biri bilan butunlay qarama-qarshi bo'lishiga qaramasdan urushdan keyin aloqalar bir muncha yaxshilandi. Bunga ikkala davlat hukumatlari ham amerikaparast bo'lganligi va ikkinchi tomondan AQSH ning ta'siri bilan kommunizmga qarshi bo'lgani uchundir.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar 1979-yil Erondagi islom inqilobi bo'lguniga qadar davom etdi. Bu inqilobdan so'ng ikkala davlat o'rtasidagi farq ancha oshdi. Ikkala davlat aloqalari keskin o'zgardi. Eron hukumati Turkiyadagi ekstrimist tashkilotlari, islomparast partiyalarni qo'llay boshladi. Bu Turkiya uchun jiddiy xatar edi. Turkiya g'arblashayotgan davlat bo'lsa, Eron butunlay islomlasha boshlaydi. Hukumat butun davlat tizimlarini diniy qoidalar-shariat asosida boshqara boshlaydi. Eron hukumati esa Turkiya bilan aloqalarni

yaxshilashga unchalik xohish bildirmaydi. Bunga Turkiyaning Amerika hukumatiga xayrixohligi sabab bo'ladi.

80-yillarning o'rtalarida ikkala davlat munosabatlaridi iliqlik yuzaga kela boshlaydi. Bunga Turkiya prezidenti Turgut O'zal katta hissa qo'shadi. Ikkala hukumat uchrashuvlarida qator shartnomalar imzolanadi. Eronning ham Turkiyaga islom inqilobini eksport qilish tugaydi.

Mutaxassislar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashishiga ikki sabab bor deya taxmin qiladi:

- 1) Diniy sabab-Otaturk mamlakatni respublika deb e'lon qilgandan so'ng dinning ta'sirini butunlay bekor qilib g'arblashish siyosatini boshlab yuboradi. Bu esa dinning ta'siri mustahkam bo'lgan Eronga yoqmaydi. Ayniqsa, 1979-yilgi Erondagi islom inqilobidan so'ng.
- 2) Turkiyaning g'arblashayotganligidir. Eron hukumati Turkiyani G'arbning qalin ittifoqchilaridan biri deb va ularning agenti deya ayblab keladi. Eronning hisoblashicha Turkiyaning g'arbparastlik siyosati islomning ulkan merosini barbod qilish evaziga amalga oshirilmoqda ekan¹⁹.

Kurdlar yashaydigan hududlardagi ziddiyatlar.Kavkazdagi manfaatlar to'qnashuvi.Bu sabablar ikki davlat ziddiyatlarining harakatlantirib turuvchi manbai hisoblanadi.

Eronda Azari turklar yashaydi. Turkiya bu millatni o'ziga millatdosh deb ataydi. Lekin Eronning ichki ishlariga chuqur aralashishdan cho'chib ularni Eronda yashaydigan turklar deb ataydi. Lekin, Turkiya hech qachon bu millatga qarshi ochiqchasiga davo qilgan yo'q²⁰. Chunki, Erondagi Azari turklar deyarli forslar bilan singishib ketgan. Vujudida azari turk qoni yo'q fors kamdan-kam topiladi. Eronda yana bir milliondan ortiq turkmanlar yashaydi. Panturkizm g'oyalari ta'sirida Turkiya bu millatga ham egalik qilish niyatini yashirmaydi.

¹⁹ Madeleine K. Albright and Stephen J. Hadley, Chairs Steven A. Cook-U..-Turkey's Relations with Near East. 2012. p-101.

²⁰Turkish Foreign Policy, Old Problems, New Parameters. Edited by Mustafa Aydin. Madrid, Spain: Unidad de Investigacion sobre Seguridad y Cooperacion Internacional p-112.

Turkiya va Suriya aloqalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab juda boshi berk ko'chaga kirdi. Suriya hukumati Turkiyani G'arbning jandarmi, Sharqqa ta'sir o'tkazuvchi vositachisi deb ayblab keldi.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar 1970-yilda Turkiyaning Frot daryosi ustiga yirik damba qurishi va Suriya hududiga o'tadigan suvni judayam kam miqdorga yetkazib qo'yganidir. Turkiyaning topgan sababi shuki, daryo birinchi navbatda u o'tayotgan davlatning mulkiga qaraydi va bu davlat unga istalganidek munosabatda bo'ladi. Qachonki suv bir davlatdan boshqa biriga oqib o'tgandan so'ng uning mulkiga aylanadi deya izoh beradi.

Yaqin-yaqingacha davlatlar o'rtasidagi suv havzalaridan foydalanish muammolariga yechim topadigan xalqaro qonunlar ishlab chiqilmagan edi. Lekin BMTning chiqargan qarorlariga amal qilmasdan Turkiya o'zining suv siyosatini davom ettirmoqda. Agar Turkiya o'zining suv siyosatini to'xtatsa juda ko'p muammolarga yechim topilardi. Chunki, qator ziddiyatlar borki ular suv muammosi bilan bog'langan.

Frot daryosi Suriyaning suvga bo'lgan 86% ehtiyojini qoplaydi. Suvning kamayishi natijasida Suriyada kuniga elektr energiyasining 19 soatgacha uzilishiga olib kelishi mumkin. Suriya iqtisodi asosini qishloq xo'jaligidan keladigan daromad tashkil etadi.

Suriya suv muammosi paydo bo'lgandan keyin avval o'zi ham yetishtirgan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlarini import qila boshladi. Hatto Damashq ko'chalari devorlarida "Asad biz senga o'z sadoqatimizni berdik sen ham bizga elektr bergin" deb yozilgan chaqiriqlarni ko'rish mumkin edi²¹. "Sabah" gazetasi muhbiri va tv xodimi Mahmud Ali Birandning aytishicha- "Suriyaga kerakli miqdorda suv o'tgan, Turkiya hukumati qancha suv kerak bo'lsa shuncha miqdorda ajratmoqda suv bilan bog'liq hech qanday taqchillik yo'q. Hamma gap ikki hukumat bir-biriga ishonmasligi va Suriya hukumati bu muammo kelajakda jiddiy tus olib ketmasligi uchun dunyo e'tiborini hali jiddiylashib ulgurmagan bu muammoga qaratishdir va shu orqali kelajagini ta'minlashdir. To'g'ri Suriyada so'llarning hukumatga kelishi

²¹ Patricia Carley A Conference Report Turkey's Role in the Middle East- Washington-1995-p-37.

va Kurdlar harakatini qo'llab-quvvatlanishi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yomonlashtirib yubordi.

Sobiq Sovet davlati parchalanib ketmaguncha ikki davlat ikki qarama-qarshi davlat kurashiga tortilib keldi. Yaqin Sharqdagi notinchliklar ichida Turkiya tinchlikni saqlab keldi. Turli davrlarda ikki davlat hukumatlari turli ziddiyatlarni hal qilib keldi, lekin asosiy muammo suv muammosi bo'lib qolmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi talash hudud bo'lgan Aleksandriya va Hatay hududlari masalalari hozirchalik uxlayotgan muammolardandir. Bu muammolar vaqti kelib uyg'onadi, lekin hozirchalik bunga navbat kelgani yo'q. Suv muammosi ortidan qator muammolar tug'ilmoqda.

Suriya hukumati iqtisodiy ahvolni yaxshilash uchun harakat qildi. Xorijiy investitsiyani jalb qilishga ancha urindi, lekin elektr va suv muammosi katta bo'lgan davlatga qaysi davlat ham investitsiya kiritishni xohlaydi.

Yana bir sabab Suriya hukumati Isroil bilan arab davlatlaridagi muammolargaqaramasdan siyosiy jihatdan chekinib bo'lsa ham hamkorlik uchun muzokaralarni boshlashi bilanoq Turkiya hukumati bunga qarshi chiqib suv krizisini kuchaytirdi. Maqsad agar Suriya Isroil bilan aloqalarni yo'lga qo'ysa Isroildan kattamiqdorda investitsiya kutishdan tashqari uning zamonaviy harbiy qurollaridan ham olishi mumkin edi. Bu Suriyani harbiy jihatdan ancha kuchaytirgan bo'lardi, lekin Turkiya bunga hech qachon jim qarab turolmasdi.

Ikki davlat ayrim masalarda bir xil fikrda ham. Masalan, Turkiya o'z chegarasida mustaqil Kurdiston davlatini kurishni istamaydi, Suriya ham bunday bo'linishini xohlamaydi. Nafaqat Suriyaning balki butun arab davlatlari ichida ziddiyatlar keltirib chiqarayotgan Turkiyani mintaqadagi ko'pgina davlatlar

“Troya oti” deya ataydi²². Chunki Turkiya G'arbning strategik maqsadlarini amalga oshiruvchi jandarm vazifasini uzoq vaqtlardan beri o'tab keldi. Shuning uchun ham bu o'xshatishda qaysidir ma'noda haqiqat mavjud. Turkiya hukumati esa Suriyani Kurd terroristlarini qo'llashda va ularga har qanday

²². Namik Kemal. Ideology and Pragmatism in Turkish Foreign Policy From Atatürk to the today. Istanbul. 2009. p-82.

yordamni ayamaslikda ayblab keladi. Suriya esa buni inkor etib keladi. Hukumatning aytishicha mamlakat qo'shinlari Isroil bilan chegaradosh Golan tepaligida va Livan chegarasida joylashgan. Yana Turkiya bilan 900 kilometrli masofani nazorat qilish ilojsizligini ham aytadi.

Qator siyosatchilarning²³ xulosalariga tayanadigan bo'lsak ikki davlat o'rtasidagi aloqalar hali beri yaxshi tomonga o'zgarmasligini taxmin qilish mumkin. Bunga sabab qilib ikki davlat ikkita gigant davlat ta'siriga tushib qolganligidadir. Suv muammosi esa kelajakda ikki davlat ziddiyatlarining resursi bo'lishi mumkin.

Arab davlatlari uchun Turkiya o'tgan asrda Falastinchalik ahamiyatga ega bo'lmagan. Bunga Turkiyaning hech qachon arab davlatlari tomonida jiddiy turmagani, uning ikki yoqlama siyosati (ko'proq g'arbga moyilligi) bunga sabab bo'ldi.

Turkiya mintaqadagi eng katta davlatlardan biri Misr bilan har tomonlama hamkorlik qiladi, va muhim aloqalar ikkala davlat o'rtasidagi muvozanatni barqarorlashtirib turadi. Misrning geografik joylashuvi, ulkan madaniy merosi va ko'p aholiga ega bo'lganligi mintaqada muhim o'rin egallashidagi asosiy faktorlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Turkiya Misrdagi demokratik o'zgarishlarni doim quvvatlab kelgan.

Usmoniylarning "millat" tizimi (Islomiy bo'lmagan dinlarning a'zolari guruhini soliq evaziga xavfsizligini ta'minlash) yahudiylarni imperiyada erkin yashashlariga imkon berar edi. XIX-asrning o'rtalarida dunyoning barcha hududlaridan Falastin hududiga qarab sionist yahudiylar yoprilib kela boshlaydi. Usmoniy sultonlari yahudiylarning bu immigratsiyasini har doimgidek kutib olishadi, lekin bu ko'chishga yangi yahudiy ideologiyasi bo'lmish sionizm sabab ekanligini turk sultonlari bilishar edi, faqat imperiyaning kuchsizlashgani va markazdan uzoq hududlardagi nazoratning susaygani tufayli ular bu

²³БалашовЮ.А, Bahattin Demir, Kenan Aksu.

holatgatomoshabin bo'lib o'tirishdan boshqa chora topa olmaydilar. Bu yoppasiga ko'chishlar Birinchi jahon urushigacha davom etadi²⁴.

Turkiya Yaqin Sharq davlatlari ishonchini yo'qotdi. Shuning uchun ham Turkiya bilan mintaqadagi davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni deyarli ko'rmaysiz. Yana bir sabab Yaqin Sharqdagi har qanday urushda Turkiya betarafdek taassurot uyg'otgani bilan uning bu urushlarda salbiy rol o'ynagani, bu urush tashkilotchilariga xayrixohlik bildirgani va ularga o'zining harbiy bazalarini bergani va boshqa qator sabablarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ayniqsa Isroil bilan qalin aloqalarni olib borganidir.

Turkiya ham bu mintaqada tartibsizliklarni davom etishini xohlamoqda deb bemalol ayta olmaymiz, chunki har qanday davlat yonginasida urush o'chog'i vujudga kelishini, uning jiddiylashib ketishini xohlamaydi albatta.

Turkiyaning arablar o'rtasidagi ishonchini yo'qotishda yana bir sababi bor. Bu Turkiyaning na G'arb na Sharqning to'la ishtirokchisi bo'lmayotganligidadir. Turkiya ikki qit'a o'rtasida passiv siyosat olib borayotganligidadir. G'arb davlatlari Turkiyani Yevropa ittifoqiga qo'shishni har xil bahonalar bilan paysalga solib kelmoqda. Turkiya esa Sharqqa qo'shilishni ko'p ham xohlamaydi. Yaqin Sharq Turkiyaga Kavkazdan ko'ra muhimroq emas. Turkiya ko'proq G'arbg va Kavkazga e'tibor beradi. Suriya va Eronda uzoq vaqtdan beri hukumat tepasida shia mazhabidagi rahbarlar hukumatni boshqarib kelmoqda. Bu ham mintaqadagi aloqalarni yomonlashishiga xizmat qiladi.

Turkiya Falastin bilan aloqalarni har doim yaxshi rivojlantirishga harakat qilib kelgan. 2005-yilda Falastinda turk tili kurslari tashkil qiladi. Kadrlar malakasini oshirish uchun qator treninglar boshladi. Bu panturkizm g'oyalarining boshlanishi edi. Bu orqali Falastinda turkparast insonlar jamiyatini yaratish edi. Shu orqali hukumatga o'z tasirini o'tkazib borishni maqsad qilgandi. Turkiya yosh va iqtisodiy zaif davlatlarga mana shunday siyosat yuritdi.

2004-yilda ikki davlat o'rtasida "Erkin savdo bitimi" imzolanib natijada Turkiya Falastin bozorini o'z maxsulotlari bilan to'ldirib tashladi.

²⁴Hürriyet (Istanbul), March 3, 2000.

Turkiya Isroil va Falastin o'rtasidagi urushni tugatishdan manfaatdor bo'lgani uchun urushni to'xtatish pozitsiyasida qat'iy turdi. 2010-yilda Turkiyaning bu davlatga eksporti 41 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, import bor yo'g'i 430 ming dollarni tashkil etdi²⁵. Turkiya deyarli barcha turdagi maxsulotlarni eksport qilsa Falastindan teri va yarim tayyor mahsulotlar tashkil qilardi. Turkiyaning

Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalari bir tekis kechmadi. Sovet ittifoqi qulagungacha Turkiya G'arb bilan aloqalari mustahkamligini ta'minlab keldi.

T.O'zal davrida Turkiya arab davlatlari bilan yaqinlashish yuz bera boshlaydi. Bu davrda Turkiyaning mintqa davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari o'sishida ko'tarilish kuzatiladi. Ayniqsa 1980-yildagi Eron-Iroq urushi davrida arab davlatlariga Turkiya eksporti ancha o'sadi. U yerga qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini eksport qildi. 80-yillar oxiriga qadar Turkiyaning arab davlatlari bilan savdo aylanmasi 16 mlrd dollarga yetdi. Ayniqsa ko'plab qurilish firmalari tashkil etildi. Asosan ular Livan, Saudiya Arabiston, Iroqda faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda Turkiya Islom Konferensiyasi tashkiloti faoliyatida g'arblashayotgan va NATO a'zosi sifatida qatnasha boshladi. Lekin tashkilotning ustav va qarorlarini qabul qilmadi. Arab davlatlari Isroilga qarshi qonunlar qabul qilganda Turkiya umuman bu qoidalarni qo'llamadi.

1960-

yillarda Anqaraning arab davlatlari bilan aloqalarida siljish kuzatiladi. Bu siljish 1967-
yilgi arab-
isroil urushi bilan ifodalanadi. Bu urushda Turkiya mintaqadagi hududi suverenitetligi va
xavfsizlikni saqlash haqidagi rasmiy bayonet
bilan chiqqan bo'lsa, amaldan eytralligicha qoldi. Shu yili Yaqin Sharqda
“Olti kunlik urush” deb nomolgan uchinchi arab-
isroil urushi kelib chiqdi. U arablarning jiddiy mag'lubiyati bilan tugadi va arablar Quddus
isharifning arablarga tegishli qismini, Sinay yarim orolini, G'azosektorini, Iordaniya
ining g'arbiy sohili va Suriya-

²⁵ Patrica Carley. Turkey's play in Near East London. 2003. P-48.

Isroil chegarasidagi Jo'lantepaligini boy berishadi. Falastinlik qochoqlar mingkishigako'paydi.

400

Shu voqeabilan bir paytda Yaqin Sharq mamlakatlari hududida Isroilga qarshiter rorchilik guruhlari tuzilab boshlanadi. Bu eng avvalo arablarning olti kunlik urushdagimag 'lubiyatidan keyin sovuq urush sharoitida AQSH va G'arb mamlakatlari danko'makolay otgan Isroilga qarshito'g'ridan-to'g'ri qurollik urushidansamarakamligi ayon bo'lganligi bilan bog'liq edi. Urushtuga shibilanoq bir necha terrorchilik tashkiloti tuzildi, ulardan eng mashhuri J.Xabasha soslogan "Falastin ozodlik xalq fronti" edi. Marksizm-leninizm prinsiplari bu harakatning mafkuraviy negiz bo'lib qoldi. Ehtimol, Falastin, Suriya, Livan, Misrdagi Isroilga qarshi terrorchilik guruhlarining rahbariyatish usababdan uzoq vaqt davomida Sovet Ittifoqidan qurol-yarog' yetkazib berish va Davlat xavfsizlik qo'mitasi maxsus lagerlarida "mutaxassislar" tayyorlashtarzi dayordamolib kelishgandir²⁶.

T,O'zaldavrida Turkiya Isroilning arab davlatlariga hujumidan norozilik bildirib Iyru salim dano'zining konsulinicha qiriboladi. Elchilik esa uchinchio'rin bosargacha qisqartiriladi.

Turkiya 1945-70-yillarda tashqi siyosatda ikki muhim vazifani amalga oshirishga harakat qildi.

- 1) NATO va Yevropaning Yaqin Shaqdagi siyosatining tuzatuvchisi bo'ldi.
- 2) G'arbparast, antisovet davlatlarni tuzishda muhim bo'g'inlardan biri bo'lish edi. Turkiya tashqi siyosati.

Turkiya NATO ni arab davlatlari hisobiga kengaytirish uchun katta harakat qildi. 1958-yilda Livanda fuqarolar urushi boshlandi. Bu esa AQSH ning aralashishi uchun yaxshi sabab bo'ldi. Turkiya esa bundan "Bag'dod pakti" manfaatlari yo'lida foydalanmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda Turkiya va Iroq hukumati va paktning arab davlatlari a'zolari Livandagi urushni muhokama qilish uchun Istambulda

²⁶ Inbar E. Regional Implications of the Israeli-Turkish Strategic Partnership // Middle East Review of International Affairs. 2001. Vol. 5. № 2. P. 54.

yig'iladigan bo'ldi. Voqealar shunday tezlik bilan sodir bo'ldiki. Istambuldagi yig'ilishni oshilishi kuni Bag'dodda harbiy to'ntarish sodir bo'ldi. Iordaniya qiroli Husaynning akasi qiroli Feysal taxtdan tushirildi va qatl etildi. Shuningdek Buyuk Britaniyaning agenti sifatida ko'riluvchi bosh vazir Nuri Said ham qatl etiladi. Iroq harbiylari respublika e'lon qilib qolmasdan tashqi siyosatda antiimperialistik siyosat yurgizishini ham e'lon qildi.

Bu harbiy to'ntarish SSSRning homiyligida bo'lib o'tgandi. Iroqdagi inqilob "Bag'dod pakti"ga va NATOning mintaqadagi ta'siriga katta zarba bo'ldi. Shunday bo'lsa ham Istambuldagi yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda J. Bayar, Menderes, Eron shoxi, Pokiston prezidenei Iroqdagi vaziyatni muhokama qilar ekan inqilobda SSSRning ta'siri borligini va uning mintaqada ta'siri o'sganini aytib o'tadilar. Anjuman ishtirokchilari Livan prezidentiga yordam beradigan bo'ldi va AQSH va Buyuk Britaniya qo'shinlari Livanga kiritildigan bo'ldi. Turkiya ham qo'shinlarini harbiy tayyorgarlikka keltirdi. AQSH va Turkiya Iroqga kerish uchun qo'shinlarini Iroq chegarasiga yaqinlashtirdi.

Suriyadagi krizis kabi SSSR Iroqqa ham tashqi tajovuzdan himoya qilish uchun yordam berishini, har qanday davlat bo'lsa ham oxirigacha Iroq bilan hamkorlikni amalga oshirishini e'lon qildi. Bag'dod pakti a'zolariga esa ularning harbiy harakatlariga qarshi norozilik bildirdi. O'sha kuni Turkiya prezidenti Menderes Iroq Respublikasini tan olishga majbur bo'ldi.

1958-yil 23-iyulda Bag'dod pakti yig'ilishida blokning shtab-kvartirasini Bag'doddan Anqaraga ko'chirish haqida qaror qabul qilindi.

1958-yil Turkiyaning arab davlatlari ichki ishlariga jiddiy aralashgan oxirgi yil bo'ldi. Uning aralashuvi mintaqa mamlakatlari bilan jiddiy muammolarni keltirib chiqara boshladi.

Iroqdagi harbiy to'ntarishdan keyin endigi inqilob Turkiyada bo'ldi. 1960-yil Turkiyada harbiy inqilob bo'lib o'tadi. Poytaxtda kuchli harbiy nazorat o'rnatiladi. Ofitserlar butun hukumat binolarni egallaydi. Hukumat kelajagi ikki qarashli harbiylar qo'liga o'tadi.

Birinchisi, Jamol Gursel boshchiligidagi harbiylar Turkiyani ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarga AQSH foydasiga qurmoqchi bo'ladi.

Ikkinchisi, Turkish boshchiligidagi harbiylar esa Turkiyani milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda panturkizm asosida qurishini e'lon qiladi. Kurdlar muammosi, Kipr muammosi, arab-isroil ziddiyatlari o'sha paytdagi Turkiya tashqi siyosatini belgilab berdi.

Iroqning Bag'dod paktidan chiqib ketishi ikkala davlat aloqalariga jiddiy zarar keltirdi. Ayniqsa, Iroqdagi kurdlar Turkiya uchun katta xavf soldi, chunki Iroqdagi kurdlar harakati Turkiyadagi kurdlariga ham ta'sir qilishi mumkin edi.

1963-yilda Bag'dod va Anqarada Eron, Iroq va Turkiya davlat rahbarlari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tadi. Bu yig'ilishda kurd ayirmachilariga qarshi birgalikda kurashish haqida gap boradi. Uchala davlat rahbarlari kurd muammosiga qarshi birgalikda kurashishga kelishib olishadi. Natija shu bo'ldiki-maxsus kurash qo'mitasi tuzildi. Bu qo'mitadan uchala davlat maxsus xizmatlari va harbiylari kiritildi.

1967-yildagi arab-isroil urushi sababli Anqara tashqi siyosatida arab davlatlari bilan yaqinlashish kuzatildi. Turkiya arab davlatlarini himoya qilib chiqdi. Turkiya arab davlatlari xavsizligi yo'lidagi harakatlarini ma'qullab bordi, lekin amalda hech qanday harakat qilmadi va o'zining neytralligini saqlab keldi. Turkiya hukumatida qanday yo'ldan ketish haqida qizg'in munozaralar boshlandi. Hukumat jo'shqinlik bilan Isroilning harakatlarini qoralasada hech qanday amaliy ish qilmadi. Arab davlatlari undan o'z hududidagi Isroil tomonidan operatsiyada qatnashayotgan NATO harbiy bazalarini tugatishini so'rasa ham urush mobaynida shikoyatlarga hech qanday munosabat bildirmadi. So'ngra BMTning chiqargan qarorini qo'llab chiqdi. Unga ko'ra Isroil egallab olgan barcha hududlaridan chiqib ketishi zarur edi. Turkiya o'zining xushomadini ko'rsatish uchun 1967-68-yillarda Misrga rasmiy tashriflar bilan bo'ldi. Ikki tomonlarga davlat tashriflari bo'lib o'tdi. Ko'p tomonlarga hamkorlik yo'lga qo'yildi. Lekin shunga qaramay Misr Turkiyaga nisbatan Kipr masalasidagi pozitsiyasini saqlab qoldi va Kiprning bo'linishiga qarshiligini saqlab qoldi.

1945-70-yillarda Turkiya tashqi siyosatda ikki muhim masalani amalga oshirishga harakat qilib keldi.

Birinchisi, NATOning Yaqin Sharq siyosatidagi harakatlarida katta ta'sirga ega bo'lish va keng miqyosida ishtirok etish.

Ikkinchisi, Yaqin Sharqda g'arbparast davlatlar ishtirokida antisovet itifoqlarini tuzish va bu bloklarda bosh rollarni ishtirok etish edi.

60-yillardan keyin Turkiya tashqi siyosatida arab davlatlariga yaqinlashish boshlandi. Turkiya buning uchun xushomaddan ham toymadi. 1958-yilda Turkiya, Eron, Isroil davlatlari maxsus xizmatlari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda uch davlat maxfiy xizmatlari ko'p tomonlama hamkorlikka kelishib oldilar va "Traydent" nomli maxfiy tashkilot tuzadilar. Bu tashkilot a'zolari yiliga ikki martadan uchrashuv o'tkazadigan bo'ldilar. Bu tashkilotning maqsadi Sovet davlatining Yaqin Sharqdagi maxfiy xizmatlari (razvetka)ni aniqlash va ularga qarshi kurashish bo'lgan. Uchala davlat hamkorlikda ish olib borishga kelishib olishadi. Turkiya ofitserlari Isroilga maxfiy xizmat sirlaridan ta'lim olish uchun Isroilga yuborildi.

Isroilning birinchi bosh vaziri Ben Gurion tashqi siyosatni puxtalik bilan olib bordi. Yevropa davlatlarining tan olishi, Turkiya, Eron, Efiopiya bilan hamkorlik Isroilga arab davlatlari qurshovini yorib o'tisha yordam berdi. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tuzildi.

1990-yilda Iroq Kuvaytga bostirib kiradi. S. Husayn Kuvaytni Iroqning provensiyalaridan biriga aylantirilganligini e'lon qiladi. Iroq Kuvaytneftidan foydalanab boshlaydi. BMT bunganorozilik bildirib S. Husayndan mamlakatdanzudlik bilan chiqib ketishini talab qiladi. Iroq va Kuvaytneftiga embargo qo'yadi. AQSH boshchiligidagi koalitsiyatezda S. Husaynga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi.

1991-yil "Cho'ldagi bo'ron" harbiy operatsiyasida Turkiya o'zining harbiy aerodromlarini o'z ittifoqdoshlariga beradi. Bag'doddan 750 km uzoqlikdagi Adana dagi harbiy bazalarini beradi. 1993 koalitsiyag'alaba qozonib Iroq surib chiqariladi. Shundan so'ng

Turkiyada T.O'zalko'plab tanqidlari yomg'iri ostida qoladi. Uni AQSHning agentisi sifatida ayaylaydi. T. O'zal shu yili O'rta Osiya respublikalariga ilgan davlat tashriflaridan qaytgandan ko'p o'tmay to'satdan vafot etadi. 2012-yilda uning zaharlanib o'ldirilgani haqidagi ma'lumotlar paydobo'ladi²⁷.

Iroq 90-yillar boshlarida Yevropa bozoriga ikkita neft quvuri o'rnatilgan. 1.5 mln barrel gacha neft eksport qilardi. T. O'zalesa Turkiya hududidan o'tgan bu quvurlarga har xil bahonalari bilan to'sqinlik qilmoqchibo'ladi. Uning bu siyosatiga harbiy generallar ham norozilik bildiradi. Harbiylar uni G'arbning manfaatlarideb Turkiya kelajagini xavf ostiga qo'yayotganlikda ayaylaydi. O'shayili T.O'zal rasmiy davlat tashrifidan so'ng to'satdan vafot etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Arab-Isroil mojarosi sharoitida Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalari butunlay izdan chiqib ketdi. Haligacha Turkiyaning mintaqadagi bu davlatlar, xususan, Eron, Iroq, Suriya, Misr davlatlari bilan aloqalari bu darajada yomonlashmagan edi. Bunga asosiy sabablardan biri Turkiyaning musulmon davlat bo'lgani va Isroilga yashirincha AQSH ta'sirida ko'mak berib turgani bo'ldi. Turkiya Isroil davlatini Arab davlatlari bilan urushni to'xtatishga chaqirsa ham amalda norozilikdan boshqa hech qanday ish qilmadi. Shuning uchun ham Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan bu davrdagi aloqalari mintaqa davlatlari rahbarlarida qattiq norozilik uyg'otdi.

“Yaqin Sharqdagi tartibsizlarni tugatish uchun katta davlatlarni bu muammolarga e'tibor qaratishini so'ragan bo'lar edim. Ularning dunyo siyosiy sahnasida tutgan o'rni naqadar muhimligini unutmasligi kerak va albatta o'z ta'sirini dunyo tinchligi uchun sarflashi kerak.”²⁸

1.3. Turkiya tashqi siyosatida islom omili

Mamlakatdagi o'zgarishlar Yaqin Sharq jamiyatining barcha tomonlariga, shu jumladan diniy jihatlariga ham taalluqli bo'ldi. Bungacha din vakillari dunyoviy va diniy hokimiyatni o'z qo'llarida jamlab, musulmon mamlakatlarda yuqori

²⁷ Abdullah Ocalan, Oligarşik Cumhuriyet Gerçeği The reality of the oligarchic republic. Istanbul. Mem, 2012, p-24.

²⁸ Karimov I.A. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida so'zlangan nutq. «Xalq so'zi». 2010 yil 22 sentabr.

mavqeni egallab turishardi. Lekin siyosiy tuzum o'zgarib borgani sari din vakillari ijtimoiy hayotdan jadal siqib chiqarila boshlandi. O'zgarishlar natijasida ruhoniylar Yaqin Sharqning an'anaviy jamiyatida diniy arboblarga xos bo'lgan mafkuraviy va ko'p jihatdan siyosiy hamda iqtisodiy hukmron ijtimoiy qatlam sifatidagi alohida maqomdan mahrum bo'ldi. Shunday sharoitda diniy ekstrimizm ma'naviy sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qarshi harakat sifatida yuzaga keldi. Bunday mafkura sof diniy omillar taqozosi bilangina paydo bo'lib qolmaydi, balki islomizmning yuzaga kelishi va qaror topishi bilan izohlanadi.

Yaqin Sharqni butun XX asr davomida larzaga solib kelgan mohiyatan ziddiyatli siyosiy voqealar bevosita va jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Yaqin Sharqda o'z siyosatiga to'liq bo'ysundirishga intilgan hamda istilochilikda "taqsimlab ol hukmronlik qil" prinsipi bo'yicha ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan Angliya va AQSH arab dunyosida hukmdorlari hokimiyatni saqlab qolish uchun g'arblik xo'jayinlari madadiga muntazam zor bo'lgan muhim bo'lmagan kichkina davlatlar tuzishdi. Bu mamlakatlarning rivojlanishi nazorat ostida bo'lib, ular bir kun kelib G'arbga tahdid soladigan mustaqil siyosiy kuchga aylanishiga hech kim yo'l qo'ymoqchi emas edi. Tashqi kuchlar o'z qo'g'irchoqlari bilan shunday shartnomalar tuzishdiki, ular bir tomondan Yaqin Sharq resurslarini arzon-garov olish imkonini berardi. Boshqa tomondan esa, fuqarolarning ko'pchiligini qashshoqlikda qoldirgan holda, feodal elitaning beqiyos boyishiga olib kelardi. Bunday ahvol qullika solingan mamlakatlar aholisining ko'pchiligini qoniqtirmasligi tabiiy edi.

Mustamlaka hukmronligining dastlabki kunlaridanoq arab davlatlari hududida milliy ozodlik harakatining ko'tarilishi tendensiyasi ko'zga tashlandi. Ayni mahalda Yaqin Sharqda mohiyatiga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi harakat paydo bo'la boshladi, uning rivojlanishi vaqti kelib zamonaning eng uzoq davom etadigan va bartaraf etilishi qiyin bo'lgan mojarolarni yuzaga keltirdi. 80-yillarda Turkiya, Eron, keyinroq Afg'onistonda liberalizatsiya va vesternizatsiya tendensiyasi rivojlanishning islom modeliga aylana boshladi.

Eron, Pokiston, Sudan va uzoq bo'lmagan Afg'onistonda butun hayot tarzini islomiyalashtirish mamalakatlarining rasmiy siyosatiga aylandi. Yaqin va O'rta Sharq islomlashgan iqtisodning markazi bo'ldi. Islomiy davlatlarda bank-moliya tizimi islomiy asosda qurilgan bo'lib davlat foiz evaziga qarz berish va shunga o'xshash turlarini joriy etmagan, davlatlar boshqacha yo'ldan borgan, davlat fondlari tashkil etgan, chunki Quroni Karimda sudxurlik qattiq qoralanadi. Eronda butun fondlar shoh odamlari tomonidan nazorat qilingan. Turkiyada esa moliya tizimi Arab davlatlari bilan hamkorlikdan ko'p kelardi. Turkiyada Islom kapitali sizilarli darajada oshdi.

Urushdan keyin Otaturk rejimidan qaytish boshlandi. Diniy qarashlar qaytadan jonlana boshladi. Hatto 1947-yilda respublikadagi birinchi madrasa ochildi. Anqara Universiteti qoshida ilohiyotshunoslik fakulteti ochiladi. Turkiya yoshlari endi Misr va Saudiya Arabistoni madrasalarida o'qish imkoniga ega bo'ldi. Hatto 1990-yilda mustaqil ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar assotsiatsiyasi tuzildi. Bu tashkilotning maqsadi o'lkadagi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va Islom an'analarga amal qilishini nazorat qilish edi. Bu tashkilot Turkiyadagi o'rta va mayda tadbirkorlar qatlamini himoya qilish bilan shug'ullandi. XXI asr boshiga kelib tashkilot turk biznes-sanoat tarmoqlarining eng foydali tashkilotlaridan biri bo'ldi. Bu tashkilot keyinchalik kichik sanoat tarmoqlarini birlashtirib faoliyatini Yevropa va Jahon bozorini egallashga yo'naltirdi. Tashkilot diniy partiyalar atrofida faoliyat ko'rsatardi. Eronda ham islomiy fondlar tashkil etilib islomiy liderlarni va ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatladi. Turkiyada esa hukumat islom ta'sirininining iqtisod, ichki va tashqi siyosatda har xil yo'llar bilan kamaytirishga harakat qilib keldi. Bo'lib o'tgan bu voqealar Turkiyada diniy tomon bilan sekulyarizmning jiddiy raqobatiga sabab bo'ldi.

1960-yillarda davlat iqtisodiyoti deyarli bankrotlik yoqasiga kelib qoldi. Turkiya bu davrda chet davlatlardan 12 mlrd dollar qarz edi. Hukumat davlatni bankrot deb e'lon qildi. Bunday vaziyatda diniy partiyalar hukumatga qarshi kampaniya boshladi. Hukumatni hech qanday chora ko'rmaslikda, vatan manfaatlarini haqida qayg'urmaslikda aybladi. Shundan so'ng ular vaziyatdan

foydalanib mamlakatni qayta islomlashtirishni boshlab yubordi. Maktablarda Quroni Karim qaytadan o'qitila boshlandi, arab tilini ham o'rgatish darsliklarga kiritildi. Diniy oliy o'quv yurtlari ochila boshlandi. Hukumat masjidlar qura boshladi, eskilari esa tamirlana boshlandi. Diniy partiyalar G'arblashish siyosatini qat'iy rad qilib islom davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini boshladi. Demokratik qarashdagi partiyalar esa islomchilarning bunday harakatini cheklash haqida bosh vazir Menderesning diniy harakatlarni cheklash haqida qarorini chiqartirdi. Butun ommaviy axborot vositalari islomchilarni tanqid qilib demokratlarga xizmat qila boshladi.

Hatto 90-yillarda Turkiyadagi islom partiyalari mamlakatda islom shariati asosida qurishga qattiq harakat qildilar va bunday rejim qurishga ularda yetarli malaka ham bor edi. Ular endi e'tiborni G'arbdan Sharqqa islom mamlakatlari qaratish kerak degan fikrlarni ayta boshladilar. Mamlakat butunlay islomlasha boshladi, lekin 1998-yildagi iqtisodiy inqiroz xalqning noroziligiga sabab bo'lib, ularning istifosiga sabab bo'ldi. Shunday qilib, Otaturk davridan beri qurilib kelinayotgan g'arb ko'rinishidagi davlat tizimidan qisqa vaqt chekinish bo'ldi.

2002-yilda Yangi tuzilgan islom partiyasi hukumat tepasiga keldi. Lekin bu safar ancha o'zgargan holda qaytdi. Hukumat endi Yevropa Ittifoqiga kirish ichun harakat qila boshladi.

60-yillarda Turkiyada "kamolchilar" tashkiloti tuzildi. Uning maqsadi M.Kamol boshlab bergan siyosatni davom ettirish edi. Bu tashkilotlarga Kamol siyosati tarafdorlari birlasha boshladi. 60-yillarda Turkiyada talabalar isyoni boshlanib ketdi. Bosh vazir Menderes chiqishlarni bostirish haqida buyruq beradi. Buning ustiga hukumat armiyani "tozalash" haqida buyruq beradi. Bu buyruq harbiy oppozitsiyani oyoqqa turg'azishga sabab bo'ldi. Quruqlik qo'shinlari rahbari Gursel boshchiligida harbiylar hukumatga qarshi isyon ko'tarishadi. Davlat binolari va hukumat a'zolarini qo'lga oladi. Demokratik partiya rahbarlari va Prezident Bayar va Bosh vazir Menderes boshchiligidagi davlat amaldorlari ham hibsga olinadi. Hokimiyat Gursel boshchiligida Milliy birlik qo'mitasi qo'lga o'tadi. Bayar va ikkita amaldorga o'lim jazosi berildi. Menderes va bir qancha

rahbarlarga esa uzoq muddatli qamoq jazosi berildi. Yangi hukumat 1924-yilgi konstitutsiyani bekor qilib yangi konstitutsiya qabul qiladi.

Turkiyada sodir bo'lgan harbiy to'ntarishlar Turkiyaning islomlashib ketmasligi uchun ham AQSH tomonidan atayin tashkillashtirilib, qo'llab turildi. AQSH Turkiyani qayta islomlashishini umuman xohlamasdi, chunki agar hukumat tepasiga islom partiyalari keladigan bo'lsa davlatni qaytadan islomlashtirib, G'arbdan yuz o'girib Sharqqa yuz tutar edi. Mintaqada geosiyosiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan, G'arb va Sharqni bir-biriga bog'lagan bu davlatni qo'ldan chiqarsa Yaqin Sharqdagi ustunligini Sovet davlatiga berib qo'yishi mumkin edi. Shuning uchun AQSH Turkiyani zamonaviy qurol-yarog'lar bilan doimiy ta'minlab turdi. Harbiy maslahatchilar yuborib turdi. Shuning uchun ham harbiylar zamonaviy qurol va malakali askarlar bilan hukumatni ortiqcha qiyinchiliksiz nazorat ostiga olishgan. Bu orqali diniy partiyalarni nazoratda ushlab turishga harakat qilganlar. Turkiya AQSHdan qurol qabul qilib olish bo'yicha Isroil va Misrdan keyin uchinchi o'rinda turgan. 1995-yil o'tkazilgan parlament saylovlarida islom partiyasi ko'pchilik ovoz ololmadilar. 550 o'rindan 135 o'rin egalladilar. Lekin ular yetarli ovoz oldilar. Saylovdagi islom partiyasining g'alabasi g'arbparast partiyalarni fuqarolar, harbiylarni butun mamlakat bo'ylab oyoqqa turg'izib yubordi. 1996-yilda mamlakat yuqori doiradagi rahbarlari orasida diniy partiya g'alabasi va uning mamlakat taqdiriga katta xavf tug'dirishi haqida munozaralar qizib ketadi. Ular bir-birini mafiyalar bilan aloqa qilishda, kurdlar bilan kelishishda, siyosiy korrupsiyada ayblay boshlaydi. "Dunya" nomli gazeta tadqiqotchisi M. Melen saylovdan keyingi bu tortishuvga shunday izoh beradi:

"Ikki qutbli partiya orasidagi urush mamlakatga korrupsiya va o'g'irlikdan boshqa hech narsa olib kelmadi. Ularning harakatlarini butun xalq ko'rib turibdi. Xalqning bu partiyalardan hech qanday umidi qolmadi. Yagona ishonadigan, madad so'raydigan joyi faqat masjid bo'lib qoldi"

Bu partiya davrida aholining kambag'al qismi 48% dan 23% ga tushdi. Partiya o'z dasturini birdaniga amalga oshira olmadi, bunga ularning armiya va muxolif partiyalar bilan raqobati sabab bo'ldi.

Bu partiyaga qarshi g'arbona partiya liderlari Yilmaz va Chiller ishtirokida muxolifat tuzildi. Ular Isroil bilan o'zaro harbiy hamkorlik to'g'risida Tel-Avevda bitim imzoladilar.

1996-yil mamlakat iqtisodi 8% ga o'sdi. Inflatsiya 80% ga qisqardi. Tashqi qarz 1990-96-yillarda 49 mlrd dan 76 mlrd ga o'sdi. Tashqi savdo defitsiti 1996-yilda 20 mlrd ni tashkil qildi. Iqtisodning ko'proq energetika, neft va gaz importi masalalari og'ir ahvolga tushib qoldi. G'arbchilar endi Eron bilan ham aloqalarni rivojlantirishni ham yoqlab chiqa boshladi. Islomchilar esa Ko'proq mustaqil O'rta Osiya respublikalari va Rossiyaning turkiy davlatlari bilan aloqalarni yuksaltirish, Isroil va Eron bilan esa unchalik xohlamas edi. G'arbchilar islomchilarning olib borayotgan harakati g'arblashish siyosatiga jiddiy zarar yetkazadi deya xavotir bildirib keldilar. Nihoyat 1997-yil 28-fevral kuni bosh vazir Chellir mamlakatdagi og'ir ahvol tufayli muddatidan oldin istifoga chiqdi. 12-iyulda parlamentda g'arbchilar hukmronligi qayta tiklandi.

Islomizm va G'arbparastlik. 1997-yilda Gulen Rim papasi Pavel II bilan ham uchrashadi. Bu voqea islom va xristianlikni rivojlantirishdagi Turkiyada muhim qadam bo'ldi. Gulenning bu harakati islom tarafdorlari tomonidan qattiq tanqid ostiga olinadi. Bularning fikricha musulmonlarning xristianlar bilan bunday ko'rinishlari mumkin emas va dunyo ahli o'ylashi mumkin ekanki musulmonlarning xristianlikka yuz o'girishi deb. Gulen mamlakatdagi islomiy partiyalarni haqiqiy islomga amal qilmayotganlikda ayblaydi, chunki islom dinida boshqa din vakillari bilan aloqa qilmaslik haqida hech qanday ta'qiq yo'qligini, qolaversa, Gulen mamlakatni turli din vakillaridan tashkil topishi hech qanday salbiy jihatga ega emasligini aytib o'tadi. Boshqa dinga nisbatan bunday munosabat islomni to'la tushuna olmaslikdan kelib chiqadi. Yangi asr ilm-fan asri bo'ladi. Ilm-fan egasi bo'lgan odamlar dunyoni boshqaradi. Shunday ekan, boshqa din vakillari hamkorligisiz bunday marralarni zabt eta olmaymiz degan edi²⁹. Gulenga qarshi ikki guruh: islomchilar va aholining kamsonli qismi edi. Lekin

²⁹ Muftuler-Baç M., Keyman E.F. Turkey Under the AKP: The Era of Dominant-Party Politics Journal of Democracy. 2012. Vol. 23. № 1. P. 91.

aholining katta qismi Gulenning bu safarini ma'qullaydilar. Ularning fikrichi bu uchrashuv mamlakatga qator ijobiy natijalarni olib kelishi mumkin edi.

SobiqboshvazirErbakan siyosiy tazyiq tufayli Germaniyagaketadi.O'shadavrpublitsistishundaydeganedi.“Germaniyadagibutunm usulmontashkilotlarturklartomonidantashkiletilgan,haliko'rasizbuyerdaislomningo 'sibborishigabizta'siro'tkazamiz”³⁰

Bupaytda Germaniya hukumatimamlakatdadiniytashkilotlarga birlashgan 17 mingdanortiqturklarborliginiqaydetishgan.Ma'lumotlargaqaraganda 60 mingturktadbirkorlari 350 mingnemisishchilariniishbilanta'minlaganekan.Boshqabirma'lumotgaqaragandaturklar 240 mingisho'rniyaratganekan.TurklarningGermaniyadagikapitali 50 mlrdmarkagayetgan.Birnemis-turkjurnalistiMetinGuro'zining “ShariatvaRefax” nomlikitobidashunday jummlar yozilgan.“

60-yillaroxiri 70-yillarboshidaTurkiyahukumatiGFRdao'ziningishlarbo'yichabirinchibyurosiniiochga ndauyerdabor-yo'g'i uchtaginamasjidboredi. Hozir esa Germaniyaning har bir burchagida masjidlarni uchratishingiz mumkin”. Kasodga uchragan korxonalar binosi,eski omborxonlar masjidga aylantiriladi.Masjidlardan tushgan mablag'lar esa Turkiyaga islomni rivojlantirish uchun yuborilardi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Turkiya tashqi siyosatida islom omili muhim ahamiyat kasb etdi. Hukumat tepasiga navbati bilan islom partiyalari va g'arbparast partiyalar kelar ekan ular o'z dasturidan og'ishmay harakat qildilar. Lekin Turkiyaning G'arb bilan mustahkam aloqalarga egaligi sababli diniy partiyalar jiddiy yutuqlarga erisha olmadi. Lekin mamlakat ichki va tashqi siyosatiga o'z ta'sirini o'tkaza olar edi.

³⁰Rabasa A., Larabee F.S. The Rise of Political Islam in Turkey. Santa Monica: Rand Corporation, 2008. P. 47.

2-BOB. XXI asr boshlarida Turkiyaning Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari bilan hamkorlik aloqalarining o'ziga xos jihatlari.

2.1. Turkiyaning Suriya, Eron va Iroq bilan aloqalarida kurd masalasi.

Turkiyanig 1970-90-yillardagi tashqi siyosati.

Kurdlar masalasi bu davrda ham dolzarbligini yo'qotmadi. Turkiyaning eng katta muammosi bu kurd muammosi bo'lib kelmoqda. Turkiya qo'shni davlatlardagi kurdlar muammosining yoyilib o'z hududiga ta'sir qilishidan qo'rqadi. Turkiya kurd muammosini harbiy yo'l bilan hal qila olmaydi. Turkiyaning mintaqadagi boshqa davlatlar bilan aloqalarida tillarining turli xilligi ham ta'sir etadi deya aytib o'tadi. Yana Turkiyani AQSH ning agenti deb hisoblaydi. Suriya o'z hududida kurd siyosiy qochoqlariga joy beradi. Kurdiston Ishchi Partiyasi bilan aloqalar o'rnatdi. 1998-yilda Turkiya o'z qo'shinlarini Suriya chegaralariga yig'adi va Hafiz Asaddan kurd separatistlari bilan aloqalarni to'xtatishni so'raydi. Suriya Turkiya harbiy bosimi ostida qoladi. Misr va Eronning o'rta tushgani sababli Adanada 1998-yilda Suriyaning kurdlar bilan aloqalarni to'xtatish haqida shartnoma imzolanadi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi "qo'shnilar bilan nol muammosi" shiorini amalga oshirishni boshlab beradi. Hatto, ikki davlat o'rtasida vizasiz qatnov joriy qilinishi haqida ham kelishib olishadi. Lekin voqealarning keyingi rivoji ko'zda tutilgan qator kelishuvlarning amalga oshmay qolishiga sabab bo'ldi. 1988-yilda Iroq qurolli kuchlari kurd shahri bo'lgan Xalabjaga hujum qildi va bu hujumda Iroq harbiylari kimyoviy qurollardan foydalandilar. Bu hujum natijasida 5000 begunoh aholi xalok bo'ldi. Eronning siyosiy tazyiqi ostida Iroq armiyasi shahardan chiqib ketishga majbur bo'ldi³¹. Turkiyaning kurd muammosi bo'yicha operatsiyalari muvaffaqiyatsiz chiqdi, bunga Eron-Iroq urushida Turkiyaning Iroq tarafda turishi Eronning bu operatsiga qo'shila omasligiga sabab bo'ldi.

Iroq kurdlariga o'tkazgan qiynoqlari sababli xalqaro hamjamiyat bosimiga duch keldi. Buning natijasida hukumat Iroqdagi kurdlarning siyosiy harakatlariga

³¹O'Leary C.A. The Kurds of Iraq: Recent History, Future Prospects // Middle East Review of International Affairs. 2002. Vol. 6. № 4. P. 18.

to'sqinlik qila olmadi. Natijada, Iroqda Kurd avtonom respublikasi tashkil topdi. Kurdlar ikki partiya "Kurd demokratik partiyasi" va "Kurdiston vatavparvarlar jamiyati" orqali hukumatga ta'sirini o'tkazadigan bo'ldi. Kurdistonni boshqarishda ham manfaatdor davlatlar o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Oqibatta, 4 yillik fuqarolar urushi boshlani. Eron va Suriya KVJ partiyasini yoqlagan bo'lsa, Turkiya KDP ning tomonida bo'ladi. O'z navbatida KDP Eronni KVJ partiyasiga yordam berayotganlikda, bir necha ming Eron askarlari fuqarolar urushida qatnashayotganlikda, Eron hukumati ularni chegaradan o'tkazib yuborganlikda ayblaydi. Turkiya ham bu harakatlarga jim qarab turmaydi, lekin Eronning harakatlari natijasida Turkiya hududda ta'sir doirasini boy berib qo'yadi³². Eron va Suriyaning maxfiy tarzda berayotgan yordamidan keyin Turkiya ochiqchasiga KDP ga yordam bera boshlaydi.

1995-yilda Turkiya o'zining 35-kontingentini yuzaga kelayotgan vaziyatni ijobiy tomonga hal qilish uchun shimoliy Iroqqa yuboradi. Shu paytdagi Turkiya prezidenti S. Demirel bu harakat haqida fikr bildirib Turkiya foydasiga o'zgarish qilishini aytgan edi. Lekin, u aytgan gaplarini amalga oshira olmadi. Bunga Eron va arab davlatlaridan bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy reaksiya edi³³.

Suriyada H. Asad davrida ham Iroqdagi voqealar bilan birgalikda Turkiyadagi kurdlar ishchi partiyasi a'zolariga boshpana berib ularga yordam berib turdi. 1980-90-yillardagi Turkiyadagi kurdarning mustaqillik yo'lidagi harakatlarida 20% Suriya fuqarolari ham qatnashdi. Ular Suriya hududida erkin harakat qilardilar³⁴. Lekin Siyosiy muvozanat va xalqaro munosabatlar o'zgara borgan sari, Turkiyaning ham bu voqealarga nisbatan javob harakatlarini jiddiylashuvi Suriyaning rasmiy Anqara bilan o'yin o'ynashini jiddiy xavf ostiga solib qo'ydi. Hatto Turkiyaning Damashq bilan 1998-yilda urushga kirishishiga deyarli bir bahya qolgandi. Turkiya Damashqni kurd ishchi partiyasi liderini Turkiyaga topshirishga majbur qildi. Ikki davlat muzokara stoliga o'tirdi. Bu muzokaralarda suv va hududiy muammolar masalasiga yechim topishdi. Suriya

³² Noi A.U. The Arab Spring, its Effects on the Kurds, and the Approaches of Turkey, Iran, Syria, and Iraq on the Kurdish Issue.

³³ Gunter M. Turkey and Iran Face Off in Kurdistan // Middle East Quarterly. 1998. Vol. 8. № 1. P-40.

³⁴ // Middle East Review of International Affairs. 2012. Vol. 16. № 2. P-18.

kurd ishchi partiyasini terroristik partiya deb tan olishga majbur bo'ldi. Ular bilan har qanday qurol oldi-sottisiga va pul manbaalari bilan ta'minlashga to'sqinlik qilishga majbur bo'ldi.

Turk kurdlarining Suriyadan chiqarilib yuborgandan so'ng Suriyadagi kurdlar ham bir qancha vaqt osoyishtalikda yashadi. O'shandan keyin ikkala davlat aloqalari iliqlasha boshladi. 1984-yilda Turkiya Eron va Iroqqa taklif bilan chiqdi. Unga ko'ra Eron va Iroq Turkiya harbiylariga chegaralari bo'ylab erkinlikni ta'minlab berish va ularning harakatiga qarshilik qilmasligi kerak edi. Maqsad ikki davlat hududidagi, chegaralaridagi kurd harbiy bazalarini yakson qilishni ko'zlagan edi. Eron bu taklifni mutlaqo rad etadi, Iroq esa bu taklifga rozilik beradi va kurdlar bazalarini yo'q qiladilar³⁵.

Shu o'rinda panturkizm harakatini ham kurd muammosiga ta'sirini yoritib o'tmoqchiman. Chunki Turkiya hukumati kurdلarni turklashtirish yo'lidagi harakatida bu g'oya muhim o'rin tutadi. Panturkizm harakatining vujudga kelishi. Panturkizm g'oyasi ilk bor XIX asrning oxirlarida tarqalab boshlagan. Bu harakatdan maqsad ad ruslarta 'sirio'ni idabo'lgan ko'plab hududlardagi turkiy qabilalarni imperiyaga 'sirio'ni idabirlashtirish bo'lgan. Bu harakat uzoq vaqt passiv holda yashab keldi, lekin 80-yillarning oxirida Xalqaro vaziyatning o'zgarishi-Sovet davlati parchalanib ketgach bu harakat istirokchilari ko'paydigan kerak bo'lsa hukumat siyosatida rajasigako'tarildi.

Yaqin Sharqda 20 milliondan 25 million gacha kurdلaryashaydi. Ularning 10 milliondan 16 million gacha bo'lgan aholi esa Turkiyada yashaydi. Qolgan qismi esa Eron, Iroq va Suriyada yashaydi. Turkiyaning kurdلar bilan aloqalari hamisha tashvishli va qonlibo'lgan. Nima uchun kurdلar Turkiya uchun muammo vaziddiyatlibo'ldi. Buning uchun yanatarixga murojaat etishimiz kerak. Otaturk davlatni tashkil qilarkan Umudhish siyosi xatoni amalga oshiradi, ya'ni Turkiya ni turklar respublikasi, davlatning barcha fuqarolari turk deyaylonqiladi. Buesabosh qamillatga mansub bo'lgan fuqarolarga haqoratsingari

³⁵) Çağaptay, Soner. The Rise of Turkey, The Twenty First Century's First Muslim Power .Potomac Books, 2014. Hale.p-197.

yangraydi. Shundanso'ngularning siyosiy erkinlik istab hukumatga qarshi harakati boshlanadi. Sultonlik davrida mustamlakalar turkdeya atalmasdi. Ular o'zlarini usmoniylar, o'zining hududi nomidan bilan yoki musulmonlar deya atadilar.

Kurdlaro'zining tilidan rasmiy foydalanishgayo'lqo'yilmadi. Ammo 1974-yil tashkilot topgan Kurdiston ishchilari partiyasi hukumatga qarshi terrorni boshlab yuboradi. Ekstremistik aktlar sodir etadi. Bunga qarshi hukumat harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Kurdlarning siyosiy rahbarlari o'ldiriladi. Kurdlarning bunday agressivligi Turkiya turizmiga katta zarar keltirdi. Mamlakatga kelgansayohatchilar va diplomatlarning kurd terroristic

guruhlari tomonidan ko'pchilikni qo'ldan chiqarib, ularni qirib tashlaydi. Keyinchalik chekishi, albatta, mamlakat byudjetiga katta zarar keltirdi. 1980-yildagi Eron – Iroq urushida Turkiya Iroqning tarafdori bo'ladi, ikki davlat mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Iroqning ruxsati bilan Turkiya harbiylari Iroqqa kirib Turkiyadan qochib o'tgan kurdlarni yetakchilari bilan birgalikda ko'plab kurdlarni qirib tashlaydi.

Keyinchalik S. Husayn kurdlarga nisbatan sug'umni kuchaytiradi. Ko'plab kurdlaro'ldiriladi. Ko'plari

Eronga qochadi. Iroq hukumatiga qarshi kimyoviy qurollardan foydalangan hamma vujud fakt. Arab davlatlari kamsonli aholisi bor Falastin haqida qayg'urmoqdayu, lekin mintaqadagi kurdlar muammasiga bafarqqaramoqda. Umuman olganda Yaqin Sharqdagi davlatlarning siyosiy hayotidabir-

biriga qarshi, passiv harakatli davlatlar bo'lib qolgan. Chunki har qaysi davlat turli siyosat olib boradi. 1980-

yillarda AQSHning Isroildagi elchisi bo'lgan Samuel Luyssunday degan edi. "Turkiyaning mintaqadagi oshib borayotgan roli uning o'zi ham bilmaydi. Mintaqadagi hiqayotgan ziddiyatlarning sababishi unda kina arablar, na Isroil voqealari niqanday bo'lishini bilmasligidir"³⁶.

Turkiyaning bu mintaqadagi ahamiyatining oshishi qator faktlar bilan izohlanadi.

³⁶By changing from Durmaz to Velioglu (son of a saint), he sought to adopt a more Islamic name. Another of Turkey's famous radical Islamist leaders.

Birinchi, Turkiya NATO ning Sharqdagi yagona a'zosi bo'lganligi.

Ikkinchi, G'arbning mintaqadagi posti bo'lganligi.

AQSH Turkiyadan Sovuq urush mobaynida foydalandi, chunki Turkiya AQSHga Sovet davlatini janubiy-g'arbdan qamal qilish rejasi uchun va Yaqin Sharqqa kirishga to'sqinlik qiluvchi geopolitik jihatdan juda muhim edi. Turkiyaning roli Eron va Isroil kabi muhim edi. Shu bilan birgalikda uning iqtisodi G'arb bilan bog'langan edi. Qolaversa, hukumat Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni chuqurlashtirishga urinar edi. Turkiyaning Kipr masalasi yo'lidagi harakatlari uning Yevroittifoq bilan aloqalariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va ko'rsatmoqda. Arab davlatlari bilan ham orol tufayli o'zaro aloqalariga sovuqchilik tushdi.

Kipr oroli 1878-1960-yillarda Angliya tasarrufida bo'ldi. Orolida 72% greklar, 18% turklar yashaydi. 1959-yilda London-Syure kelishuviga binoan orol mustaqillikka erishadi.

Buyuk Britaniya, Turkiya, Gretsiya Orolning mustaqilligi, hududiy dahlsizligining kafolatchilari bo'lishdilar. Gretsiya va Turkiya o'z harbiy kontingentini orolda saqlab turish huquqini qo'lga kiritdilar³⁷.

Angliya ham o'z ta'sir doirasi bo'lmish Akrotiri va Dikiliyada o'zining harbiy bazalariga ega edi. 1974-yilda Kiprda to'ntarish sodir bo'ladi. Afinadagi "Qora ofitserlar" inqilobidan keyin ularning yordami bilan bu orolda ham Makariosuga qarshi to'ntarish bo'lib o'tadi. Turkiya esa o'zini oroldagi turklar himoyachisi bilib orolga o'z qo'shinini kirgizadi va orolning 36.4 % anneksiya qiladi. To'ntarishning oldi olingani bilan turklar okkupatsiyasi saqlanib qolaveradi. Ular bu yerda Turkiya federativ respublikasi tuzadi. 1983-yilda orolning bu qismi mustaqil deb e'lon qilinadi. Amalda bu hududda turk lirasini, turk bojxona xizmati joriy etiladi. Kipr masalasi bo'yicha Gretsiya va Turkiya o'rtasida kelishmovchiliklar chiqadi. Ikkala davlat ham NATO ga a'zodirlar. Qolaversa, Egey dengizi hududida ham talash yerlar masalasi bor. Gretsiya Turkiyadagi Kurdlarni

³⁷Turkish Ex-leader's Body Shows Poison, Death Cause Unclear: Media // Reuters. 2013. December.

qo'llab keladi. Kipr masalasi Yaqin Sharq uchun kam ahamiyatli masala emas. Kipr Turkiya tashqi siyosatida muhim o'rin egallab keladi. Kiprning 1990-yil Yevro Ittifoqqa qabul qilinishi Turkiyaning hududdagi harakatlarini chekladi. Chunki Yevro Ittifoq o'z hududidagi davlatlarga qilinadigan tashqi tazovuzga indamay qarab turmaydi.

Xulosa ilib aytadigan bo'lsak Turkiyaning Eron, Iroq, Suriya bilan aloqalarida kurd omili muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa Iroq va Suriya bilan aloqalar urushgacha bordi. Iroqdagi kurdalarning avtonom davlat huquqini olishi Turkiyadagi kurdlarni ham ruhlantirib yubordi. Suriya esa SSSR ta'sirida Turkiyadagi kurdlarni qo'llab keldi. Turkiya esa bu harakatlar mamlakat ichkarisida avj olib ketmasligi uchun qattiq qarshilik qildi. Iroq va Suriya bilan ham aloqalar shu sababli yomonlashib ketdi. O'zbekistonda esa fuqarolarning huquq va erkinliklari qonun yo'li bilan mustahkamlanib qo'yilgan. Xususan konstitutsiyamizning 5-bob 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar, deb yozib qo'yilgan.³⁸

2.2.XX asr oxiri-XXI asr boshida Isroil-Turkiya hamkorligiga nisbatan arab davlatlarining munosabati.

Turkiya-Isroil aloqalari 1949-yil Isroilning davlat sifatida tashkil topganidan so'ng boshlandi. Turkiya musulmon davlatlari orasida Isroilni tan olgan ilk davlat bo'ldi. Ikki mamlakat orasida harbiy strategik va iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Dunyo siyosatchilari bu hamkorlikni Yaqin Sharqda muvozanat tiklanishini boshlab beradi degandi.

Isroil-Turkiya o'rtasida harbiy-texnikaviy hamkorlikning yo'lga qo'yilishi Isroil havo, suv kemalarining Turkiya aeroport va portlaridan foydalanadigan bo'ldi. Isroil muhandislari Turk havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatdi tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

³⁸O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 5-BOB, 18-modda.

Turkiyaning Isroildagi ilk diplomatik missiyasi 1950-yil sodir bo'ldi. Messiya rahbari Sayfulloh Esin ishonchnomasini Isroil Bosh vaziri Chaim Vezmanga topshiradi.

Isroil Turkiyada ikkita missiya ochdi. Birinchisi elchixonada, Anqarada edi. Ikkinchisi esa konsullik, Istanbulda edi. Elchi Gabby Levi, Bosh konsul Mordichayi Amihayi edi. Buning natijasida 1956-yilda Suvaysh krizisi vaqtida ikki davlat maslahatlashgan holda bir pozitsiyada turdi. 1958-yilda Isroil Bosh vaziri David Bengurion va Turkiya Bosh vaziri Adnan Menderes aloqalarni yanada rivojlantirish uchun bir stol atrofiga yig'ilishdi³⁹. Muzokaralarda ikki xalq aloqalari, milliy xavfsizlik bo'yicha hamkorlik va harbiy hamkorlik kabi masalalar joy oldi.

XX asr oxirida – XXI asr boshlarida Turkiyaning Isroil bilan aloqalari. Turkiyaning musulmon davlatlaridan birinchi bo'lib Isroilni tan olishi Isroilning mintaqa qamalidan chiqib olishiga yordam beradi. Turkiya doim Isroil bilan hamkorlikda faoliyat olib bordi. Lekin ikki arab-isroil urushi vaqtida Turkiya Falastin yonini oldi. Istanbulda Falastin ozodlik tashkilotining ofisi ochiladi.

Arabdavlatlarining ikki davlat hamkorligi nisbatan shikoyatlari oshib ketdi. Suriya vitse-prezidenti A.Xalim Xaddam davlatlarning o'rtasidagi aloqalarga o'z fikrini bildirib “ikkidavlat aloqalari ikkinchi jahon urushidan keyingi eng xavfli muammo”-degan edi⁴⁰. Iroq tashqi ishlar vaziri al-Saxaf esa

“ikkidavlat o'rtasida o'tkazilayotgan harbiy-

dengiz mashg'ulotlarida diddan boshqanarsa emas”-

degan. Eron prezidenti M.Xotamiy esa

“Turkiya-

Isroil aloqalari arab dunyosining g'ashigategmoqda”

degan edi. Misr ham davlatlarning o'rtasidagi aloqalarga noroziligini bildirib o'tdi. Prezident maslahatchisi Al-

Bazbuno'z munosabatini bildirarkan ikki davlat o'rtasidagi harbiy hamkorlikni arabda

³⁹ Turkey's Foreign Policy: Zero Problems with Neighbors Revisited. Foreign Policy Journal (February 9). Retrieved October 16, 2012.

⁴⁰ Inbar E. Regional Implications of the Israeli-Turkish Strategic Partnership // Middle East Review of International Affairs. 2001. Vol. 5. № 2. P. 49.

vlatlarimilliyxavfsizligigajiddiyxavfdebataydi.

“Ikki davlat o'rtasidagi harbiy hamkorlik mintaqadagi vaziyatni buzishga, kerak bo'lsa urush chiqarishga ham sabab bo'lishi mumkin. Turkiya va Isroil kerak bo'lsa urush chiqarishdan ham toymay mintaqada o'z manfaatlarini o'rnatmoqchi” –

degan edi. Rostdan ham bu hamkorlikning kuchayishi Misrning mintaqadagi manfaatlariga jiddiy xavf va muammolarga o'g'ir edi. Misrning mintaqadagi liderligi ajdiddiy to'siq bo'lmay qolgan edi.

XXI asrning boshida ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yanada o'zgardi. Bunga Isroil va Falastin urush sabab bo'ldi. 2002-

yilda Turkiya bosh vaziri B. Edjevit Isroilni Jenon shahrida genotset uyushtirganlikda aybladi⁴¹. 2004-yilda esa R. Erdog'an Isroilni G'azosektorida 60 nafar begunoh falastinlikni o'ldirganlikda aybladi. Ularning orasida begunoh yosh bolalar ham bo'ldi.

Turkiya va Isroil o'rtasidagi aloqalarda Suriya doim muhim ahamiyat kasb etgan.

1958-

yilda Suriya va Misr o'zaro hamkorlik haqida shartnomani imzolagan va o'ziga Turkiya va Isroil ham o'zaro “xususiy pakt” tuzishadi. Ayniqsa 1990-yilda Suriya va Turkiya aloqasi Suriya hukumati ning kurd larni yoqlab ularga boshpana berib qo'llagani, Turkiya Frot daryosini to'sib dambaqurishi, Suriyaning Xatay viloyatiga Turkiyaning da'vosi ortidan ikki davlat aloqalari yomonlashib ketadi. Buning ortidan Turkiya yana Isroil bilan yaqinlashdi. Bu ittifoq esa Damashqni ikki davlat o'rtasida “qurshovda” qolib ketishiga olib keldi. Hattoular Damashq bilan 1998-yilda urushga kirishishiga deyarli bir bahya qolgandi⁴².

1967-yil 6 kun davom etgan Isroil Arab urushi oqibatida Turkiya Isroilga ishg'ol etgan hududlaridan chiqib ketishini so'radi lekin Isroilni agressiv davlat deyishdan voz kechdi. Ammo Arab davlatlarining Isroilga qarshi barcha turdagi

⁴¹ Dymond J. Turkey Accuses Israel of Genocide // BBC. 2002. April 4. URL: <http://news.bbc.co.uk/2/hi/europe/1911609.stm> (data obrasheniya: 01.12.2013).

⁴² Bir C., Sherman M. Formula for Stability: Turkey plus Israel // Middle East Quarterly. 2002. Vol. 9. №4. P. 27.

harakat va choralariga qarshi chiqdi. Keyinchalik 1980-yil noyabr oyida Isroilning sharqiy Quddusni egallashi ikki davlat o'rtasidagi natijalarini suvga oqizdi.

Isroil va Turkiya aloqalari Rajap Tayip Erdog'an davrida jiddiy sovuqchilik davriga kirdi. Isroil va Turkiya orasidagi aloqalar 2008-09-yillardagi G'azo mojarosi tufayli sovuqlashib ketdi. Lekin keyinchalik 2013-yilda Eronda Isroil maxfiy razvetkasining fosh etilishida Turkiyaning roli katta bo'lgani uchun Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

Turkiyada yahudiylarning yashashi Isroil bilan aloqalari mustahkamlanishining asosiy sabablaridan biri deb qarasak, bu XV asrga borib taqaladi. 1491-yilda yahudiylar Espaniya qiroli Engizisyon tomonidan mamlakatdan haydab yuboriladi. Shunda, Usmonli davlati sultoni ularga o'z hududidan joy bergandi. Shundan so'ng yahudiylar Usmonli tarixida juda katta rol o'ynadi. XVI asrlardan boshlab ular Usmonli davlatida hokim, banker, diplomat lavozimlarini egalladilar. Ularning saroydagi tasiri kam bo'lsada savdo, ishlab chiqarish, bank tizimida ularning tasiri katta bo'lgan edi⁴³.

Turkiya va Yaqin sharq mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar butun Sovuq urush va 90-yillarda vomida o'zgaruvchan bo'lib, lekin o'tgan davrda ko'proq boshqamusi musulmon mamlakatlariga nisbatan Turkiya-Isroil aloqalarida nchaya qinligini ko'rishimiz mumkin. Buyaqinlikdeyarli barcha sohalarni qamrab olgan edi, harbiy texnikalarni yetkazib berishdan tortib, turizm gacha. Hatto, shudara jagaborib yetadiki Misrdagi Musulmon birodarlarining gazetasibo'lmish Al-Davada Turkiyani "Ikkinchi Isroil" – deb ko'rsatib, ungham Isroil bilan bir qatorda Musulmon va Arab dunyosining dushmanideb qaralishi, yeryuzidan supirib tashlanish ilozimligita'kidlagan.

Sevr Tinchlik shartnomasiga ko'ra Usmoniylar Imperiyasining Turkiya qismining bo'linishi Turkiya va Yaqin Sharq davlatlari o'rtasida aloqalar sovuqlashishini boshlab berdi.

⁴³Kenan Aksu, Turkey and The West in Historical Perspective, in Proceedings of Conference on "Turkey's Foreign Policy In A Changing World: Old Alignments and New Neighborhoods" 2000. P-82

Na fuqarolar urushi davomida, na yangi Turkiyaning tashkil qilinishi yahudiylar jamoasining tinchligiga tahdid solgani yo'q. Hatto Ikkinchijahon urushi davomida Turkiya o'zini betarf davlat deya e'lon qilganligi tufayli bu yerdagi yahudiylarning hayotiga tahdidlar bo'lmadi, aksincha Germaniya, Avstriya va Sharqiy Yevropadan minglab yahudiylar Turkiya hududidan boshpana topadilar.

BMTning 1947-yil 29-noyabrdagi 181-rezolyutsiyasi bo'lmish, Falastin hududida ikkita Yahudiy va Arab mamlakatlarini yaratilishiga, Turkiya qarshi ovoz beradi. Shunga qaramasdan 1949-yil 28-mart kuni Turkiya Isroilni mustaqil suveren mamlakat sifatida tan oladi. Turkiyaning bunday beqaror qarorlari hozirgcha davom etib kelmoqda. Bu qarorlarning qabul qilinishiga esa asosan Turkiyaning xalqaro va regional manfaatlari sababdir.

1952-yilda ikki mamlakat Turkiya va Isroil poytaxtlarida birinchi elchixonalarini ochadilar, diplomatik aloqalar o'rnatiladi. Bunday yaqinlashishga Turkiyaning Sovuq urush davomida G'arb davlatlari tomonida turib siyosat olib borishi sabab bo'ldi. Keyinchalik bu pozitsiya uning NATOga a'zoligi bilan yanada mustahkamlanadi. Lekin ayrim mutaxassislar bu yaqinlashishni Turkiyani Arab dunyosidan olgan qasosi deb ham hisoblaydilar. Chunki Usmoniylar imperiyasining bo'linishida va uning Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyatida Arab dunyosi G'arb dunyosi bilan ittifoqchilik qilib, oxirgi xalifalikning eng ojiz tomonidan hujum qilgan edi. Lekin ko'p o'tmay, 1955-yilda, Turkiyaning Bag'dod shartnomasiga imzo chekishi ikki davlatni bir biridan uzoqlashtirdi. Bu shartnoma Sovet Ittifoqining regionda ta'sirini cheklashga qaratilgan bo'lsada, Yaqin Sharqda Arab millatchiligi va Musulmonchilikni o'ziga asos qilib olgan davlatlarining G'arbning qudratli davlatlari bilan yaqinlashtirgani tufayli Isroilga to'g'ridan to'g'ri xavf tug'dirar edi. O'sha davrda (hozirgi kunda ham shunday holat) Turkiya regiondagi yangi geopolitik o'zgarishlardan foydalanib o'zining siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlab olishni ko'zda tutgan edi.

Isroilning Suvaysh kanaliga hujumi davrida, Turkiya o'zining Tel-Avivdagi elchisini favqulodda holatda ushlab turadi, Isroil ham o'z navbatida Anqaradagi elchixonasini har qanday holatga tayyor bo'lishi lozimligi haqida ogohlantiradi.

Lekin ikki davlat orasidagi munosabatlar voqealarning rivoji bilan yaxshilanib boradi. 1958-yildagi Iroqdagi inqilob, shu yildagi Suriya, Misr tomonidan anti-amerikanizmga asoslangan Birlashgan Arab Respublikasining tashkil qilinishi va nihoyat Suriyaning Bag'dod shartnomasini tarqatib yuborishi regiondagi geostrategik vaziyatni tubdan o'zgartirib yuboradi. Panarabizmni kuchayishi arab mamlakatlari chegarasida joylashgan mamlakatlarni (Turkiya, Isroil, Eron va Efiopiya) manfaatlariga zid edi. Natijada bu mamlakatlar tashqi siyosatida yaqinlashish kuzatiladi, ayniqsa Isroil va Turkiya munosabatlari shu davrda diplomatik, xavfsizlik, savdo-sotiq va qishloq xo'jaligi sohalarida o'zining tarixiy cho'qqisiga yetadi.

6 kunlik urush va Kiprdagi to'qnashuvlar natijasida, ikki davlat orasidagi munosabatlar yana boshqa tomonga o'zgardi. 1967-yilga kelib ahvol juda ham taranglashadi, savdo aloqalari butunlay uzilib, harbiy sohadagi ikki davlat orasidagi kelishuvlar to'xtatiladi. 1967-yilda Turkiya o'zining hududida Isroilga madad berish vazifasini o'tayotgan AQSh harbiy bazalarini yopadi. Keyinchalik, uning bu pozitsiyasi tufayli 1973-1974 yillarda bo'lib o'tgan neft krizisida arab mamlakatlari Turkiyaga katta zarar keltirmaydilar. 1975-yilda, Anqara BMTning sionizm mafkurasini rasizmni bir ko'rinishi deb e'lon qilishga qaratilgan rezolyutsiyasini qo'llab quvvatlaydi.

Isroil bilan uzoqlashish hisobiga arab dunyosi tomonga og'ish Turkiyaga kutgan natijani bermaydi, ya'ni Kipr muammosidagi Turkiya talablari hech qaysi arab mamlakati tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi.

70-yillar oxiridagi Suriyadan 4500 yahudiyni Yevropa va AQShga evakuvatsiya qilishda Turkiyaning qo'llabquvvatlashi mutaxassislar tomonidan Arab dunyosining Turkiyaga yetarlicha ittifoqdosh bo'lmaganligi tufayli yuz berdi deya tushuntiradilar⁴⁴.

1980-yilda Turkiyada bo'lib o'tgan harbiy davlat to'ntarishi, hukumat tepasiga Turgut O'zalni uzoq muddat davomida faoliyat olib borishiga olib keladi.

⁴⁴ International Institute for Strategic Studies (IISS). The Military Balance 2013. London: IISS, 2013. P. 183.

1983-1989 yillarda bosh vazir, keyin esa 1993-yilgacha prezident vazifasini o'tab, u Turkiyaning tashqi siyosatida keskin o'zgarishlarni amalga oshirmaydi. Uning siyosati asosan AQSh va G'arb dunyosi bilan yaqinlashishga va ichki islohotlarga yo'naltirilgan edi. Shunga qaramasdan, Isroil bilan yaqinlashish sekinlik bilan amalga oshadi va bunga ko'proq Turkiyaning yaqinlashish istagi yo'qligimas, balki Isroilning tashqi siyosati sababdir.

1981 va 1982-yillar orasida Isroil Iroqning Osirak yadroviy reaktorini yo'q qiladi, Quddusni birlashgan poytaxt deb e'lon qilib Golan platosini o'ziga qo'shib oladi va nihoyat o'zining shimolida joylashgan Livan davlatini harbiy jihatdan bir qismini egallab oladi, shu jumladan mamlakat poytaxti bo'lmish Bayrutni ham. Bunday nozik siyosiy vaziyatlarda Turkiyaning Isroil bilan yaqinlashishi haqida so'z bo'lishi ham mumkin emas edi. Shu sababli, Turkiya Isroilda joylashgan turk elchixonasini yopishga buyruq beradi, lekin shunga qaramasdan Turkiya Isroilning bunday agressiv tashqi siyosatini bosiqlik bilan kuzatib turadi.

1980-yillar o'rtalariga kelib yangidan ikki mamlakat orasida iliq munosabatlar shakllana boshlaydi, dastlab AQSh va Yevropa yordamida, keyinchalik to'g'ridan to'g'ri davlatlar orasida. Isroil diplomatlari AQSh kongressiga bosim o'tkazib 24-aprel kunini 1915-yildagi Turkiyadagi Arman genotsidini qayta yodlash kuni deb e'lon qilinishiga qaratilgan qarorni bekor qilishga muvaffaq bo'ladilar⁴⁵.

1991-yilda Madridda Yaqin Sharq muammosini yechishga qaratilgan xalqaro konferensiya ikki davlatning yanada yaqinlashishiga katta ta'sir qildi. Isroil va qo'shni arab mamlakatlaridagi harbiy qurollarni qisqartirishga qaratilgan shartnomada turk diplomatlari faol qatnashadilar. Isroil ham o'z navbatida Turkiya taklif qilgan shartlarni bajarishga va'da beradi. Bunday iliq munosabatlar Tel-Avivga turk elchixonasi faoliyatini tiklash orqali yanada mustahkamlanadi.

⁴⁵ Inbar, E Regional Implications of the Israeli-Turkish Strategic Partnership // Middle East Review of International Affairs. 2001. Vol. 5. № 2. P. 72.

1993-yildagi Oslo kelishuvlari, keyinchalik 1994-yildagi Isroil-Iordaniya tinchlik shartnomalari turk-isroil aloqalarni qaytadan rivojlantiradi. Hindiston va Xitoy o'z navbatida Isroil bilan to'la huquqli diplomatik aloqalarni o'rnatadilar.

Sovet Ittifoqining qulashi oqibatida Isroilning davlat sifatidagi maqomi xalqaro maydonda ancha o'zgardi. Endilikda arab dunyosini qo'llab quvvatlovchi qudratli davlat yo'qligi, Turkiyaga tashqi siyosatidagi tanlovni birmuncha osonlashtiradi. Boshqa tomondan, AQSh va Yevropa Turkiya bilan yaqinlashishiga Inson huquqlarining buzilishi va mamlakatdagi korrupsiyaning kuchliligi to'sqinlik qilar edi, omma tanqididan cho'chigan G'arb davlatlari, Turkiya bilan masofa saqlagan holda munosabat o'rnatishni ma'qul ko'radilar. Oqibatda, turk hukumati uchun Isroil tabiiy sherikka aylanadi. Shu tufayli 1990-yillardan 2000-yillar o'rtalariga qadar ikki mamlakat o'rtasida davlatlararo harbiy shartnomalar tuziladi. Shu sohadagi aloqalar juda ham rivojlanadi. Bu kelishuvlar Turkiya armiyasini Isroil tomonidan yetkazib bergan yangi texnologiyalar, moslamalar va boshqa harbiy anjomlar bilan ta'minlashga, uni zamonaviylashtirishga yordam beradi. Isroil dronlari Turkiyadagi kurd separatistlariga qarshi kurashishda eng muhim texnologiyalardan biriga aylanadi. Isroilning Heron droni, Turkiya harbiy kuchlari tomonidan kurd separatistlariga qarshi kurashda ishlatilgan⁴⁶.

Lekin davlatlararo aloqalar faqat harbiy sohada to'xtab qolmaydi. Isroil hukumati boshliqlari Turkiyaga bir necha bor rasmiy tashriflar uyushtiradilar. O'z navbatida Turkiya prezidenti Suleyman Demirel 1996-1999-yillarda Isroilga rasmiy tashrif uyushtiradi. 1996-yilda ikki mamlakat o'rtasida erkin savdo almashinuviga imzo chekiladi, bu kelishuv Isroil hukumati uchun iqtisodiydan ko'ra ko'proq siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Haqiqatdan ham bu kelishuvga imzo chekilgandan beri savdo balansi ochiqchasiga Turkiya hisobiga og'ganini guvohi bo'lishimiz mumkin. 90-yillardan boshlab ikki davlat orasida aloqalar qalinlashdi. 1991-yilda Madrid konferensiyasidan keyin Turkiya Isroil bilan aloqalarni qaytadan rivojlantirish haqida bayonot berdi. Elchilik aloqalari qaytadan

⁴⁶Güneylioğlu M. The Changing Nature of Turkish-Israel Relations: A Globalization Perspective
Boğaziçi Journal. 2011. Vol. 25. № 2. P. 159.

to'raligicha yo'lga qo'yildi.1993-yilda Turkiya tashqi ishlar vaziri X.Chetin Isroilga tashrif bilan bordi.Davlatlar ikki tomonlama o'zaro ishonch va hamkorlikning istiqbolli yo'llari to'g'risida bitim imzolashdi.Vazir Turkiyaga qaytgandan so'ng tuzilgan shartnoma haqida - "Isroil bilan qayta yo'lga qo'yilgan hamkorligimiz uzoq istiqbolli hamkorlikdir,bu hamkorlik Yaqin Sharq mintaqasidagi vaziyatni qaytadan isloh qiladi", degandi⁴⁷.

1992-yilda ikki davlat o'zaro turizmni rivojlantirish haqida shartnoma imzoladilar.Isroilning ko'plab fuqarolari Turkiyaga dam olishga kela boshladi.1996-yilda o'zaro erkin savdo qilish,bojxona soliqlarini qisqartirish haqida bitimlar imzolandi.1997-yilda ikki tomonlama investitsiya haqida,1998-yilda telekommunikatsiya,pochta tizimi, ikki tomonlama narkotrafikaga qarshi kurash haqida qator shartnomalar imzolashdi.Buning orqasidan aloqalar yuqori bosqichga chiqdi.1994-yilda T.Chgiller, 1996-yilda S. Demirel Isroilga rasmiy vizit bilan bo'ladi.Isroil tashqi ishlar vaziri Sh.Peres,president Veytsman javob tashriflari bilan Turkiyada bo'ladilar.1996-yil ikkala davlat vakillari o'zaro harbiy tayyorgarlik va hamkorlik haqida shartnoma imzoladilar.Shu vaqtdan boshlab davlatlarning harbiy hamkorligi rivojlana boshladi.Isroil Turkiyaning Konya shahridagi harbiy havo bazasidan hamkorlik sifatida foydalana boshladi.Turkiya o'zining harbiy havo texnikalarini Isroil mutaxassislari bilan ta'mirladi.Turkiya Isroildan ko'plab harbiy qurollar sotib oldi⁴⁸.

Ikki davlat vakillarining uchrashuvidan keyin ayniqsa davlatlar o'rtasidagi harbiy hamkorlik rivojlanib ketdi.O'sha paytda harbiy savdo aylanmasi 100mln dollarni tashkil etgan bo'lsa 1991-yilda 2mlrd dollarni tashkil etadi.2000-yilga kelib Turkiya Isroil harbiy sanoati savdosida eng faol hamkorlaridan biri bo'ldi.Hatto G'arb davlatlari Turkiyadagi inson huquqlarining poymol etilishi va

⁴⁷Bir C., Sherman M. Formula for Stability. Turkey plus Israel, Middle East Quarterly. 2002. Vol.9. №4. P. 26.

⁴⁸ Inbar E. Regional Implications of the Israeli-Turkish Strategic Partnership Middle East Review of International Affairs. 2001. Vol. 5. № 2. P. 49.

Gretsiya bilan siyosiy urushitufayli Turkiya bilan savdo aloqalarini to'xtatganda ham Isroil Turkiyani eng zamonaviy harbiy qurollar bilan ta'minlab turdi⁴⁹.

1996-yilda imzolangan harbiy shartnoma ortidan ikki davlat o'rtasida qator rasmiy tashriflar bo'lib o'tdi. 1997-yilning boshida turk armiyasining shtab boshlig'i I.X.Karadayi Isroilga tashrif buyurdi. Uning ortidan Isroil tashqi ishlar vaziri D.Levi Turkiyaga keladi. Uning ortidan esa Turkiya mudofaa vaziri T.Tayan tashrif bilan bo'lib qaytadi. Undan so'ng Isroil shtabi boshlig'i Anqaraga boradi. 1997-yillar davomida har ikkala davlat qurolli kuchlarida ishlaydigan ofitserlarga bir-birlari bilan uchrashish uchun sharoitlar bor edi⁵⁰. Bu paytda ikkala davlat o'rtasida oliy darajadagi uchrashuvlar bo'lib o'tdiki, ikkala tomon ham Turkiy-Isroil aloqasi region uchun naqadar muhimligini ta'kidlar edi. Masalan 1997-yilda Turkiya bosh vaziri M.Yilmaz ikki davlat o'rtasidagi aloqalar mintaqada barqaror vaziyatni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagandi. 1998-yilda Isroil bosh vaziri B.Netanyaxu ikki davlat aloqalari mintaqada uzoq davom etgan beqarorlikni tugatadi degan edi. O'sha paytdagi Isroil mudofaa vaziri I. Mordixay Isroil va Turkiya aloqalari kelajagimiz uchun zarur deya ta'kidlagan edi.

1998-yil Isroil tashqi ishlar vaziri Turkiyaga birgalikda qo'shma harbiy-dengiz mashg'ulotlarini hio'tkazishni taklif qildi. 2010-yilda Turkiyadan Isroilga 1.8 mlrd AQSh dollari miqdorda eksport bo'lgan bo'lsa, 1.3 mlrd AQSh dollari miqdorida import. Bu holat 2011-yilda ham qaytarilgan- Turkiya Isroilga 2.7 mlrd dollarlik eksportni amalga oshirgan⁵¹.

AKPning turk hukumati tepasiga kelishidan ham oldinroq ikki davlat munosabatlari yomonlasha boshlagani sezilayotgan edi. 2000-yildagi Isroil-Falastin munozaralarining boshi berk ko'chaga kirib qolishi oqibatida yuzaga kelgan Ikkinchi intifadaga qarshi Isroilning keskin qarshi hujumi Turkiya tomonidan sovuq qarshi olindi. Turkiya doim o'zini Isroil va Falastin o'rtasidagi

⁴⁹Yavuz H. Turkish-Israeli Relations through the Lens of the Turkish Identity Debate Journal of Palestine Studies. 1997. Vol. 27. № 1. P-37.

⁵⁰Pipes D. A New Axis: The Emerging Turkish-Israeli Entente// The National Interest. 1997-1998. № 50. P. 32.

⁵¹Tür Ö. Turkish-Israel Relationship – Where Are We Going UNISCI Discussion Papers 2010. № 23. P. 173.

muvozanatni ushlab turuvchi mamlakat deb hisoblab kelar edi, shu boisdan u Isroilning, uning yo'riqlarisiz, kutilmagan harakatlariganoroziligini bildirgan edi. Bu o'z navbatida Isroilning o'z tashqi siyosatida Turkiya bilan hisoblashmasligini yaqqol ko'rsatib berdi. Turk xalqini o'ziga qaratish maqsadida Turkiya siyosatchilari ommaviy axborot vositalarida xalqchil (populist) intervyularni berishda davom etadilar. Jumladan 2004-yilning 6-iyunida Isroilning kundalik gazetalarining biri, Turkiya bosh vaziri Tayyip Erdog'an Isroilni ikkinchi intifadaga qarshi harakatlarini "Terrorist davlat"ga xos deya ataganiga javoban Isroil bosh vazirining javobini bosib chiqaradi. Unga ko'ra, "Bugun - tushuntiradi u, jabrlanuvchilar-Falastinliklar. Baxtga qarshi, isroilliklar falastinliklarni ular bundan besh yuz yil oldin yahudiylarni qanday repressiya qilgan bo'lgan bo'lishsa shunday repressiya qilishmoqda. Isroil aholini bombardimon qilib, tinch aholini vertolyotlardan o'qqa tutmoqda. Jabrlanuvchilar orasida bolalar, ayollar va qariyalar borligi hisobga olinmayapti. Ularning uylari esa buldozerlar bilan yanchib tashlanmoqda"⁵²

Adolat va Taraqqiyot Partiyasining (AKP) Turkiya hukumati tepasiga kelishi va Yaqin Sharqdagi geopolitik vaziyatni o'zgacha tus olishi oqibatida ikki davlat orasidagi aloqalar butunlay uzildi. Bugungi vaziyat Mavi Marmara siyosiy krizisi Turkiya-Isroil aloqalarini yana turg'un vaziyatga olib kirgan asosiy hodisa deb o'ylashimiz tabiiy hol. Lekin, ikki mamlakat ham o'z tashqi siyosatida ikkiyuzlamachilik qilib kelishmoqda edi va ikki mamlakat o'rtasida hech qachon bir biriga chuqur ishonch bo'lmagan.

Masalan: Turkiyaning Erondan Hizbulloh guruhiga qurol yarog'larni yetkazib berishiga ko'z yumishi. Isroil va AQSh maxfiy xizmatlari tomonidan aniqlanishicha Turkiya o'z hududidan o'tuvchi Eron qurol tashuvchi samolyotlarini bir yoki ikkitasini urib tushurib qolgan katta ko'pchilik qismini o'tkazib yuborishi holatlari ko'p kuzatilgan. Bundan tashqari Isroil-Turk kelishuvlariga ko'ra Turkiya o'z havo hududlarini Isroil harbiy havo kuchlariga mashq qilish uchun ruxsat bergan, Eron va Isroil harbiy havo kuchlari uchrashib qolgandagi har qanday

⁵²Altunışık M.B. Turkey's Changing Middle East Policy // UNISCI Discussion Papers. 2010. № 23.P. 153.

to'qnashuvi esa ikki davlat o'rtasidagi ayovsiz urushni keltirib chiqargan bo'lar edi. Bu esa Turkiyaning Isroilni kuchayib ketmasligi uchun doimiy beqarorlik kayfiyatini ushlab turishga intilishini bildiradi. Isroil ham o'z navbatida Turkiyaning Gretsiya bilan hal bo'lmagan hududiy tortishuvlarida umuman qo'llab quvvatlamaydi⁵³.

Isroil-Turkiya munosabatlaridan tarixiy inoqlik yoki umumiy mafkuralar izlash befoyda, ikki mamlakatning oxirgi 60-yil ichidagi uzluksiz yaqinlashish va uzoqlashish siyosatlari faqat va faqatgina ularning manfaatlaridan kelib chiqqan. Ikki mamlakat ham Yaqin Sharqda umumiy manfaatlarga ega. Turkiya uchun arab dunyosining kuchayib ketishi o'zining geostrategik o'rnini yo'qotish xavfini tug'dirsa, Isroil uchun arab dunyosining birlashishi uning yo'qlikka yuz tutishi bilan barobar. Boshqa tomondan ikkita mamlakatni ham "G'arb jamoasida" deb atasak xato bo'lmaydi.

Ikkala mamlakat ham Eronning kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishadi. Lekin oxirgi 10 yillikda yuz bergan geopolitik hodisalar Turkiya uchun regionda yanada ham kuchliroq pozitsiyalarga ega bo'lish imkoniyatini tug'dirmoqda. Yevropa Ittifoqiga nomzodligi rad qilinganligi Turkiyani o'zini regionda yakkalanib qolmasligi uchun, yangi "jamo" tuzishga undadi. "Arab bahori" va Suriyadagi tartibsizliklar Turkiyani yangi "og'a" mamlakatiga aylanishi uchun katta imkoniyatdir. Bu yo'lda esa o'ziga Isroilni sherik qilib tanlash uni barcha arab va musulmon davlatlari tomonidan chetlashtirilishiga sabab bo'lishi turgan gap.

Hozirda Isroil bu voqealar rivojiga kuzatuvchi bo'lib turishdan boshqa iloj topa olmayapti. Mavi Marmara siyosiy krizisidan so'ng Turkiya rasmiy ravishda Isroil elchisini o'z hududidan haydab chiqaradi va Isroil bilan tuzilgan barcha harbiy shartnomalarni bekor qiladi. Oxirgi marta yuz bergan Isroil – Falastin o'rtasidagi G'azo sektoridagi to'qnashuvlari turk-isroil aloqalariga batamom chek qo'ydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁵³ Aykan M.B. The Palestinian Question in Turkish Foreign Policy from the 1950s to the 1990s // International Journal of Middle East Studies. 1993. Vol. 25. №. 1. P. 91-110.

Ikki davlat orasidagi ajralish iqtisodiy jihatdan ikki davlatga ham katta yo'qotishdir. Turkiya iqtisodiy qudrati jihatidan dunyodagi 15-o'rinni egallashiga qaramasdan uning Isroil bozoriga muhtojligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, yangi texnologiyalar va Turkiya armiyasining zamonaviylashtirishda Isroilning roli kattadir, Turkiya hozirda ushbu sohada yakkalanib qoldi. Garchi Isroil bilan uzoqlashish Turkiyaga musulmon, jumladan, arab dunyosiga, namunali davlat sifatida o'z ta'sirini o'tkazishga imkon bersada, bu o'yin G'arb dunyosi bilan uzilish hisobiga Turkiya uchun juda xavfli bo'lishi mumkin. Chunki agar ertaga Turkiyaning G'arb dunyosi bilan munosabatlarini muzlatib arab va musulmon dunyosiga "og'alik" qilish rolini qo'lga kiritgan taqdirda ham, uning na iqtisodiy va na siyosiy holati bu mamlakatlarni birlashtirib turish uchun yetarli sharoit yaratadi. Aksincha, Arab dunyosining ayrim mamlakatlari (Fors ko'rfazi mamlakatlari) bunday birlashishdan foydalanib "katta og'a"lik rolini Turkiyadan tortib olishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda Isroil uchun bu uzoqlashish Turkiyaga qaraganda ko'proq zarar keltirgani turgan gap. Turkiya uning 6-iqtisodiy sherigi bo'lishidan tashqari u Isroil uchun yagona Musulmon tayanch mamlakati edi. Harbiy aloqalar Isroilga, ham moliyaviy va ham texnologiyalarni rivojlantirish uchun imkoniyat edi. Bundan tashqari, Turkiya havo hududlarida uning erkin mashg'ulotlarini o'tkazish imkoni eng muhim jihatlardan biri edi. Hozirda Isroil havo kuchlari Gretsiya va Ruminiya Havo hududlarida mashg'ulotlarini o'tkazishga to'g'ri kelmoqda, bu esa moliyaviy jihatdan ham, geografik jihatdan ham Isroilga zarar keltiradi. Isroil uchun yana bir yomon yangilik, bu "Arab bahori" tufayli Isroil uchun arablar ichidagi tinchlik kafolati bo'lmish Misrni sheriklar ro'yxatidan o'chirilishi bo'ldi. Endilikda barcha "Arab bahori" tufayli hukumat o'zgargan mamlakatlarda birin ketin diniy partiyalar hukumatga chiqib olishi, Isroilni kelajakda mashaqqatli geopolitik vaziyat kutib turganidan dalolatdir. Suriyadagi ahvol esa qaysi tomonga o'zgarishi hozircha noaniq bo'lib turibdi. Lekin, Bashar Al-Asaadni hukumatdan ketishi uni qolishidan ko'ra Isroilga xavfliroq bo'lishi mumkin. Bu borada hozircha Isroil hech qanday bayonot bermagan, lekin

Turkiyaning Suriya muholifatini qat'iy qo'llab quvvatlashi yana bir bor Isroilga Turkiya bilan aloqalarni yaxshilash lozimligini ko'rsatib bermoqda.

Arab davlatlari Turkiyadan ko'p marta so'ragan Mintaqadagi tinchlik uchun o'zining dadil harakatini ko'rsatishni, lekin Turkiya xo'p deb javob bergani bilan hech qanday harakatni ko'rmaymiz. Turkiya faqat o'ziga manfaatli bo'lgan yo'ldan yuradi. Agar iqtisodiy foyda bo'lsa, global mavqeyi oshadigan bo'lsa, yoki aralashganda ham tavakkal qilmaydi.

2.3. G'arb davlatlarining Yaqin Sharq siyosatida Turkiyaning o'rni.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiyaning ichki va tashqi siyosati shu darajada og'ir ahvolga tushib borayotgan ediki biror kuchli ittifoqchisiz, davlatsiz rivojlana olmasdi. AQSH Turkiyani har tomonlama o'z ta'sir doirasiga oldi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng dunyo siyosiy sahnasidagi boshqaruvchilar o'zgardi. Angliya va Fransiya endi avvalgi ta'sirini butunlay yo'qotdi va mintaqani yangi kuchlarga bo'shatib berdi. Ular faqat bu davlatlar bilan tor doirada, ya'ni, savdo va ikki tomonlama hamkorlik asosida davom etdi. Yakuniy so'zni ikki derjava gigantlari aytar edilar. Endi Yaqin Sharq davlatlarida yangi kuchlar nisbati paydo bo'ldi. Urushdan g'oliblar qatorida chiqqan AQSH va SSSR Yaqin Sharq davlatlariga endi o'zining o'yin qoidalarini ayta boshladi. Ikki derjavaning yetakchilikda AQSH NATOni tuzadi, SSSR esa Varshava ittifoqini tuzadi. Har ikkala blok mintaqada o'z "o'yinchilari" bilan geopolitik o'yinni boshlaydi. Mintaqa ikki lagerga bo'linib qoldi, amerikaparast davlatlar va SSSR ning ta'sirida bo'lgan davlatlarga. Ayrim davlatlar bu o'yin qurboniga aylandi. Yoki bir nahangdan qochaman deb boshqa nahanga tutildi. Arab-Isroil konfrontatsiyasi tufayli sotsializm ittifoqchilari safi Suriya, Iordaniya, Iroq hisobiga to'ldirildi. SSSRning arab mamlakatlariga iqtisodiy yordami yildan-yilga ortib bordi. Faqat bu bilan cheklanib qolmay qurol-yarog' va harbiy maslahatchilar bilan ham ko'maklashdi. Yaqin Sharq davlatlari o'z mamlakatlari manfaatlarini hisobga olib majburan qaysidir derjavaga qo'shildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin neftga boy bo'lgan bu mintaqada shu

darajada geopolitik harakat uchun raqobat kuchaydiki,ikki derjavadan ham mustaqil yashab kelgan davlatni ko'rmaymiz.

Urushdan keyin mintaqadagi muammolar: Mintaqadagi kurdlar muammosi, Isroil va arablar ziddiyati,Turkiya va Suriya muammosi,Eron va Iroq urushi,Isroil va Arab ligasi davlatlari urushlari,Pokiston va Avg'oniston muammosi,hududiy davolar mintaqa davlatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikni shunchalik oshirib yubordiki mintaqadagi davlatlar ziddiyatlarni hal qilish yo'li deb harbiy yo'l tanlandi.Shunday qilib mintaqada jiddiy vaziyat yuzaga keldi. Mintaqa ziddiyatlar o'chog'i bo'lib qoldi. Bunday sharoitda AQSH va SSSR mintaqaga o'zlarini tartibni saqlovchi politsiyachi rolini bajarishni bahona qilib to'g'ridan-to'g'ri kirib keldi.

Turkiyaning urushdan keyingi geopolitik ahamiyati G'arb va Sharq o'rtasidagi juda ham oshib ketdi.Amerikaning SSSR bilan Yaqin Sharqdagi raqobati bunga sabab bo'ldi.Yaqin Sharqdagi ulkan miqdordagi tabiiy zaxiralari gigant davlatlarni bee'tibor qo'ymas edi.XXI asr boshigacha Turkiya AQSHning Yaqin Sharq va Avg'onistondagi harbiy harakatlari uchun undan nima talab qilingan bo'lsa hammasini harbiy ittifoqchilariga foydalanishga berdi.

1955-yilda AQSH tashabbusi bilan Turkiya, Iroq,Eron, Angliya,Pokiston harbiy ittifoq tuzishadi bu blokning maqsadi Sovetlar tug'dirayotgan sotsializm xavfiga qarshi kurash edi.Yaqin Sharqdagi amerikaparast davlatlar Isroil davlatini tan olishi va u bilan hamkorlik qilishi arab davlatlarini tashvishlantirib qo'yadi. Natijada, Isroilning asosiy himoyachisi bo'lgan AQSH bilan aloqalari yomonlasha boshlaydi.Arablarda bu paytdagi sotsializm yoyilishining sababi ham mana shunda .Ko'pgina arab davlatlari Sovetlar bilan yaqinlasha boshlaydi.SENTO tashkiloti Eronda islom inqilobiga qadar faoliyat ko'rsatdi.Iroqda 1958-yilda inqilob sodir bo'lgandan so'ng yangi hukumat bu tashkilotdan chiqadi va Sovet davlati bilan yaqinlashish yo'lini tuta boshlaydi.Turkiya esa bundan qattiq norozi bo'ladi va boshqa ittifoqchilarga Iroqqa qarshi darhol urush boshlashini taklif qiladi,lekin AQSH bu urushning oqibati yomon bo'lishidan qo'rqib Turkiyani bu maqsadidan

qaytaradi. Iroqning Bag'dod paktidan chiqishining yana bir sababi-bu Suvaysh kanali krizisi edi

1947-50-yillarda AQSH Turkiya va Gretsiyaga kommunizmdan "himoyalaniishi" uchun harbiy ehtiyojlarga 2mlrd dollargacha ajratdi⁵⁴. Turkiyaning NATO ga qabul qilingani ma'lum manoda Turkiyani harbiy holatini deyarli normal darajaga rivojlantiradi. Endigi harakat Eronga yetib kelgandi. AQSH Eron iqtisodini rivojlantirish uchun dotatsiyalar ajratadi.

50-yillardan boshlab turk tadbirkorlarligi rivojlanishi uchun imkoniyatlar rivojlana boshladi. Ayniqsa G'arbning (asosan AQSHning) kiritayotgan kapitali evaziga mahalliy tadbirkorlar katta imkoniyatlarga erisha boshladi. Urushdan keyin mamlakatda bir partiyaviylik o'rniga ko'ppartiyaviylik tizimi o'rnatildi. Mamlakat demokratik prensiplar asosida rivojlana boshladi. Yevropa dalatlari Turkiyga yopiq bozor vaqtlari o'tib ketganligi, hamkorlikda ikki tomonlama ochiqlik asosida faoliyat yuritish to'g'risida ayta boshladi. O'sha paytda milliy iqtisodni himoya qilish uchun maxsus davlat sektori faoliyat olib borar edi. Butun savdo aloqalari Yevropa davlatlari bilan amalga oshirila boshlandi. Turkiya G'arbga asosan yarim tayyor maxsulotlar yetkaza boshladi. Chunki bu paytda mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi umuman sust va raqobatbardosh emas edi.

1952-yilda Turkiya AQSH, Angliya, Fransiya bilan birgalikda Misrga "O'rta Sharq qo'mondonligi" nomli harbiy ittifoqqa taklif qildi⁵⁵. Bag'dod paktining tuzilishidan Turkiya juda katta maqsadlarni kuzlagandi, jumladan, mintaqada gegemonlik qilish edi. 1955-yilda bu paktga Buyuk Britaniya va Eron qo'shilgandan keyin Turkiyaning mintaqadagi pozitsiyasining kushsizlandi va liderlik imkoniyatlarini kamaytirib yuboradi. Turkiyaning Bag'dod paktidagi harakatlari Turkiyaning o'z milliy manfaatlaridan to'la kelib chiqmagan holda amalga oshirildi. Uning harakati ko'proq NATO, AQSH, Buyuk Britaniyaning ta'siridan kelib chiqib amalga oshirildi.

⁵⁴Ю., А., Балашов, М., В., Вагин, О., А., Колобов, А., А., Корнилов Международные отношения На ближнем востоке В XX веке-Нижний новгород-2002 с-144.

⁵⁵Ю., А., Балашов, М., В., Вагин, О., А., Колобов, А., А., Корнилов Международные отношения На ближнем востоке В XX веке-Нижний новгород-2002 с-144.

1949-yilda Istanbulda AQSH ning Yaqin Sharqdagi akkredatsiyadan o'tgan diplomatlari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Bu yig'ilishda AQSHning mintaqadagi roli oshirish to'g'risida so'z boradi. Qohiradagi yana bir uchrashuvda AQSHning Misrdagi elchisi J. Keffiri, Afrika va Yaqin Sharq ishlari bo'yicha deriktor B. Berri, Gretsiya, Turkiya, Eron bo'yicha davlat departamenti deriktori o'rinbosari U. Rounqi qatnashdilar. Ular bu uchrashuvda AQSHning mintaqadagi obro'sini oshirish, mintqa davlatlarini G'arbgga tomon og'dirishni, SSSR bilan chegaradosh bo'lgan davlatlar Gretsiya, Turkiya, Eronga harbiy yordam berishni davom ettirish, arab-isroil qarshiligidan unumli foydalanishni muhokama qilgandi. 1950-yilda Londonda AQSH, Angliya, Fransiya ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda "Uch tomonlama deklaratsiya" deb nomlanga qaror qabul qilindi. Unga ko'ra ular Isroil va arab davlatlariga o'z mustaqilligi, milliy xavfsizligini himoya qilish uchun harbiy yordam berish edi. Shundan so'ng AQSH Turkiya va Eronda katta harbiy loyihalarni amalga oshira boshladi. AQSH ta'siri ostida bo'lgan davlatlar hududidan keng ravishda foydalana boshladi.

Turkiyaning AQSHga yuz o'girish sabablari

Birinchi, Kavkazni o'z tasir doirasiga olish uchun yosh Turkiya respublikasiga Sovet va Eron davlatlari xavfidan himoya qila oladigan ittifoqchi davlat zarur edi. O'sha paytda bu talabga faqat AQSH javob bera olardi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi vayronga aylangan Yevropada esa Fransiya, Germaniya, Angliya-hech qaysisi Turkiyani uning raqiblaridan himoya qilishga qodir emas edi. Ular ham AQSH ning qarzdoriga aylanib qolgan edi. Turkiyaning AQSH ga yuz o'girish sabablari.

Ikkinchi, II jahon urushidan keyin yosh Turkiyadagi og'ir iqtisodiy ahvol uni AQSH dan qarz olishga majbur qildi. Buning evaziga Turkiya hukumati AQSHning ta'siriga NATO ga a'zo bo'ldi.

Uchinchi, Turkiya mustaqil bo'lgandan keyin Mustaf o Kamol diniy tuzumni butunlay inkor qilgan holda butunlay Yevropaga yuzlandi, Yevropa andozasida davlat qura boshladi. Mustaf o o'sha paytda umuman sharqdagi qo'shnilar bilan, qolaversa, sharqdagi boshqa davlatlar bilan hamkorlikka jiddiy

e'tibor bermadi. Turkiyaning AQSH bilan yaqinlashishi natijasida Yaqin Sharqqa nisbatan aloqalari faollashdi.

AQSHga Turkiya nima maqsadda kerak edi. Asosiy sabab AQSHning Sovet davlatiga qarshi bir jandarm, harbiy baza tayyorlash edi. Chunki Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaqin Sharqdagi ko'p arab davlatlari Sovet andozasida davlat qurmoqchi bo'lib Sovetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi va bu mintaqada geopolitik jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan hududlar ustidan nazoratni o'z qo'lga olganini, qolaversa, AQSH diplomatiyasining mag'lubiyati edi. Shuning uchun AQSH jiddiy harakat qilmasa mintaqadagi endi egallanayotgan pozitsiyasini boyberishi mumkin edi. Bir tomondan u Isroil davlatini tashkil qilishda jonbozlik ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan og'ir ahvolga tushib qolgan Turkiyani o'z ta'sir doirasiga olishi bo'ldi. Buning natijasida esa AQSH Turkiyaga o'zining yadroga qarshi raketalarini joylashtiradi va Yaqin Sharqqa doimiy tasir o'tkazish uchun undan foydalandi. Chunki Turkiya yangi tashkil topgan yahudiy Isroil davlatini Osiyoda birinchilardan bo'lib tan olganida ham AQSH ning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bu esa Turkiyani musulmon davlatlar bilan munosabatlarning sovuqlashib ketishiga olib keldi.

AQSHdagi "Markaziy Osiyo Kavkaz" instituti va Jon Hopkins universiteti direktori E. Kornel o'z maqolalaidan birida shunday fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Arab davlatlarida sodir bo'lgan arab bahori Turkiya diplomatiyasining katta g'alabasi va bu o'yinlarda u katta muhim o'yinchi."

50-yillarda Turkiya Iroq va Suriya o'rtasida hududiy muammolar chiqq boshlaydi. Turkiya hukumati o'z hududidan o'tgan Frot va boshqa ko'pgina daryolarni to'sib GESlar qura boshlaydi. Bu esa qolgan ikki davlat qishloq xo'jaligi, iqtisodi uchun halokatli qibatlarga olib kelishi, qishloq xo'jaligini o'nglanmas halokatli darajaga yetkazishi mumkin edi. Suriya va Iroq hukumati esa bu harakatlarga tinchgina qarab turolmasdi. Darhol Turkiya hukumatiga rasmiy norozilik bildiradi. BMT ga murojaat qiladi, chunki daryolar u kesib o'tayotgan har bir davlatning mulki bo'lib, bu davlatlardan birortasi bu daryolarni boshqa davatlarning manfaatlarini hisobga olmasdan, zarar yetkazadigan darajada o'z

manfaati yo'lida foydalanishi mumkin emas deb BMTning "Suv resurslaridan foydalanish" to'g'risidagi qarorida yozib qo'yilgan. Bu Iroq qishloq xo'jaligiga katta talofatlar olib keldi. Uzoq davom etgan suv mojarosidan so'ng nihoyat 2009-yilda uchala davlat suv o'tkazish to'g'risida memorandum imzoladi. Turkiya hukumati endi cheklangan miqdorda suv o'tkazadigan, Iroq hukumati esa Turkiyani arzon neft mahsuloti bilan taminlaydigan bo'ldi. Shu orqali Turkiya Iroqni nozik tarafini topib undan o'z manfaati yo'lida foydalandi.

80-yilda Eron va Iroq hudud talashib urush boshladi. Bu urushda Turkiya o'zini betaraf deb e'lon qilgan bo'lsada Iroqqa moddiy yordam berib turdi. Turkiyadan oziq-ovqat maxsulotlari yetkazildi. Katta miqdorda qarz beradi. Agar shu vaziyatga e'tibor beradigan bo'lsak bu vaqtda Turkiyada harbiy to'ntarishlar bo'lib davlat G'arb davlatlaridan katta miqdorda qarzdor va har yilgi qarz foizlarini qaytarishga hatto mablag' yetishmas va Iroqqa qarz berishga qolaversa, uni moddiy tomonlama taminlashga hech qanday iloji yo'q edi. Bu yerda AQSH ning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Chunki 1979-yilda Eronda islom inqilobi yuz berib AQSHning asosiy tayanchi bo'lgan shoh va uning tuzumi ag'darildi, hukumat tepasiga esa Oyatulla Humayniy boshchiligida antiamerikachilar keladi. Shoh esa mamlakatdan qochadi. Yangi hukumat esa Sovet davlati bilan yaqinlashib bordi. Bu mamlakatdan manfaatlarini yo'qotishni istamagan Amerika qanday bo'lmasin yangi hukumatni ag'darib o'ziga hamfikir hukumatni qaytarish edi, chunki Eronda juda ulkan miqdorda gaz va neft zaxirasi bo'ardi. Bu yerdan esa g'arb osonlikcha chiqib ketishni istamas edi. Va sabab ham topildi. Iroq bilan Eron o'rtasidagi talash hudud bo'lib, ikki davlat bu masalada uzoq vaqtdan beri murosaga kela olmayotgan edi. AQSH va uning ittifoqchilari esa Iroqni moliyalashtirib harbiy yordam berib talash hududga Iroq o'z qo'shinini kiritishiga erishishadi. Shu orqali urush boshlanib ketdi. Turkiya Iroqqa ochiqcha yon bosolmas edi, chunki Erondan katta miqdorda gaz sotib olar, va bu uni ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majbur etdi.

Turkiyaning Iroqqa yordam berishining yana bir sababi bo'lib. Yaqin Sharqda va Kavkazda Eron bilan siyosiy gegimonlik uchun raqobatlashar edi.

Shuning uchun Eronning siyosiy jihatdan kuchsizlanishi Turkiyaning pozitsiyasini mustahkamlar edi. Lekin 80-yillar oxiriga borib Iroq bilan aloqalar sovuqlashib qoldi, chunki hukumat tepasiga kelgan S. Husayn Iroqning neftdan kelayotgan daromadlariga mamlakatni harbiy jihatdan kuchaytira boshladi. Buning ustiga Sovet davlati bilan yaqinlasha boshlaydi.

1990-yilda Iroq Kuvaytga hujum qildi. NATO esa bunday vaziyat kerak edi va zudlik bilan BMT qarori bilan Iroqqa urush boshladi. Bu harakatlarda Turkiya ham ishtirok etadi. 1983-yilda to 2008-yilgacha Turkiya qo'shinlari Iroqqa 24 marta kiradi⁵⁶. Turkiya bu davrlarda o'z airodromlarini harbiy harakatlar uchun AQSHga berib keldi. Iroqdagi kurdlar uzoq vaqt siyosiy mustaqillik istab noroziliklar keltirib chiqaradi. Bu esa Turkiyaning hududiy birdamligiga rahna solishi mumkin, chunki Turkiya shimolida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin kurdلarning soni bir necha millionni tashkil qilar edi. Turkiya o'z hududidagi katta sonli bu millatning ham ilhomlanib tartibsizliklar keltirib chiqarishidan cho'chimoqda edi. Shuning uchun, Iroqdagi kurdlar muammosini o'z vaqtida bostirish uchun harbiy harakatlarda faol ishtirok etdi. 1957-yilda Iroq hukumatining hisoblashicha o'sha paytda Iroqda 136 ming turklar istiqomat qilar ekan. 1958-yilga inqilobdan keying hukumat hisobotida esa 567 mingta ekanligi qayd etilgan.

XX asrning 90-yillarida Turkiya iqtisodi deyarli sinish holatiga kelib qoldi. Davlatning qarzi 100 mlrd dollargacha yetdi⁵⁷. Turkiya sanoatchilari raqobatbardoshlikni saqlab qolish ushun sobiq sotsialistik respublikalarga umid bog'ladi. Yangi respublikalarda ham ko'zlagan maqsadlariga yeta olmadi, chunki u yerga Eron, bir qancha arab mamlakatlari, janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlari ham kirib kela boshladi.

XX asrning 90-yillarida Turkiya Kavkazdagi separatizmning eng katta homiylaridan biri edi. Turkiya uch tarafdan suv bilan o'ralgan, to'rt tarafdan esa uning dushman kayfiyatidagi davlatlar bilan chegaradosh. Pokiston ham Hindiston

⁵⁶Иракский Курдистан «энергетически» тяготеет к Турции на фоне провала переговоров с Багдадом // ИА REGNUM. 2014. 21 апреля.

⁵⁷ Карякин В.В. Современная геополитическая динамика Ближнего и Среднего Востока. М.: Граница, 2010. С-352

bilan hududiy ziddiyatlar tufayli Amerikadan harbiy yordam olishga harakat qilib keldi. Shu maqsadda Pokiston Turkiya bilan 1955-yil harbiy-siyosiy blok Bag'dod paktiga qo'shilishga qaror qildi. Hindiston esa Sovet davlati bilan hamkorlikni kengaytiradi. Iroq ham bu paktga boshida qo'shilgandi lekin 1959-yil bu blokdan chiqib ketadi.

AQSH o'z ittifoqchilarini o'zining harbiy kometitlari orqali nazorat qilib turardi. AQSH paktga qo'shilmagan Suriya va Iordaniyaga qarshi kampaniyani boshladi. Misrga qarshi esa iqtisodiy bosim orqali ta'sir etdi. AQSH Misrdagi Anuan GES larini moliyalashtirishni ham bekor qildi. Jamol Abdul Nosir boshchiligidagi Misr hukumati tashqi siyosatni o'zgartirishga majbur bo'ldi. Mamlakat SSSR va sotsialistik davlatlarga yuzlana boshladi. 1957-yil qabul qilingan "Eyzinxaur rejasi" ga ko'ra Yaqin Sharqdagi barcha yordamga muhtoj millatlarni himoya qilish maqsadida AQSH ning mintaga kirishiga sabab bo'ldi. Bu orqali AQSH mintaqada o'z ittifoqchilarini topib bu yerda harbiy-siyosiy jihatdan mustahkam o'rnashib oldi. Shu maqsadda AQSH 1958-yil yozida Livanga qarshi harbiy intervensiya uyushtirdi. Bu harakatlar darhol mintaqada antiamerikachilik kayfiyatini uyg'otdi. Shu sababdan Iroq Bag'dod paktidan chiqib ketdi. Iroqda Amerikaga qarshi bo'lgan ofitserlar harbiy tontarish o'tkazib Qirol Feysal va bosh vazir Said Nuri qatl etildi. Iroqning bu blokdan chiqishi AQSHga Sovet davlatiga qarshi harbiy-siyosiy harakatiga katta zarba berdi. Bag'dod pakti keyinchalik SENTO deb ataladigan bo'ldi. AQSH yetkazilga zararni blokning boshqa a'zolarini harbiy jihatda kuchaytirish orqali qoplamoqchi bo'ldi. Turkiya, Eron, Pokiston va AQSH ning harbiy rahbarlari, diplomatlar, va maslahatchilar ishtirokida 1960-yilda Anqarada uchrashuv bo'lib o'tadi. Unda yuqoridagi davlatlarga harbiy va iqtisodiy yordam berishga kelishib olinadi. Kelishuvda yana bir yozilmagan qoida bor edi. Unga ko'ra AQSH ularning harbiy, ichki ishlariga bema'lol aralashadigan bo'ldi.

60-yillardan boshlab AQSH mintaqadagi ta'sirini boy bera boshladi. Bunga Isroil-arab davlatlari urushi tasir qila boshladi. Isroilning orqasida AQSH turganini bilgan ko'pgina arab davlatlari bularga qarshi kurashda Sovet davlati bilan yaqinlasha boshladi.

Sovet davlatining Yaqin Sharqdagi ta'siri. Ikkinchi jahon urushidan keyin Sovet davlatining Yaqin Sharqqa e'tibori kuchaydi. Stalin va Xrushyov davrida SSSR ning mintaqadagi harakatlari kuchaydi. Stalin ko'proq Turkiya va Eronni o'z ta'sir doirasiga olish harakatida bo'ldi. Buning sababi Eronni o'zining neft ta'minotchisiga aylantirmoqchi bo'lgandi, chunki SSSRda eng katta neft ta'minotchisi faqat Ozarbayjon-Boku edi. Turkiya esa Yaqin Sharqning kirish kaliti edi. SSSR ikki davlatga bosim o'tkaza boshladi. 1945-yil 20-dekabrda Gruziyaning bir gazetasida ikki gruzin professori bir maqola chop etishadi. U maqolada Qora Dengiznin Gersungacha bo'lgan butun qirg'oqlari Gruziyaga qarashli bo'lgan va hukumat bu hududlarni qaytarib olishga butun imkoniyatlari bilan harakat qiladi deya yozilgan edi⁵⁸. Bu esa Turkiya va SSSR o'rtasida urushdan keyin rivojlanayotgan do'stlik aloqalariga bolta urdi. Va bu sabab AQSH bilan yaqinlashishga turtki bo'ldi. Turk muallifi Xusayn Bagjining yozishicha AQSH va Turkiya o'rtasida "sevgi tarixi" 1946-yil AQSH linkorining Istanbulga kelishi bilan boshlandi. Turkiyaning o'sha paytdagi AQSHdagi elchisi Munir Ertegyun bilan uchrashuvlar aloqalar rivoji boshlanib ketishiga sabab bo'ldi⁵⁹. Sovet davlatining bosimi sabab Turkiya o'sha vaqtdan keyin G'arb tomon shiddat bilan yaqinlasha boshladi ayniqsa AQSH bilan.

1948-yil Turkiya AQSH dan 651 mln dollar kredit oladi. Bu haqida Turkiya tashqi ishlar vaziri Najmiddin Sodiq e'lon qilib o'tadi. Vazir tan oldiki urushdan keyin mamlakat iqtisodi xatarli holatda edi. Turkiyaning o'zi bu inqirozdan chiqib ketishga imkoniyati yo'q edi. AQSH 1948-yil 4-iyulda Turkiya bilan "Marshal rejasi" doirasida iqtisodiy hamkorlik haqida bitim imzolandi. 8-iyul kuni ikkala davlat parlamentlari ushbu bitimni ratifikatsiya qildi. So'ngra "US AID" hamkorlik agentligi Anqarada o'z vakolatxonasini ochdi. Turkiya iqtisodiga 10 mln dollar mablag' kiritiladi, lekin Turkiya tomoni mamlakat extiyoji uchun 300 mln dollar zarur ekanligini ma'lum qiladi. AQSH hukumati esa Anqaraga maxsus missiya

⁵⁸ Зиганшин М.К. Эволюция российско-турецких отношений: от двустороннего сотрудничества к многоплановому партнерству: Дис. ... канд. полит. наук. Бишкек: Кыргызско-Российский Славянский университет, 2008. 213 с.

⁵⁹ Данилов В.И. Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжается // Восток. 1998. № 4. С. 52-67.

yuboradi. Missiyaning maqsadi ajratilayotgan mablag'larni qanday maqsadlarga sarflanayotganligini nazorat qilish edi. Bu paytda Turkiyaning oltin va valyuta zaxirasi mamlakat extiyoji uchun bemalol yetar edi. Hukumat AQSHdan qarz olmasa ham bo'lardi,olganda ha kichik miqdorda olishi kerak edi.

1953-yilda SSSR tashqi ishlar vaziri Molotov Turkiya tashqi ishlar vazirini chaqirib Sovet davlatining Turkiyaga nisbatan hech qanday hududiy davosi yo'q deya nota beradi⁶⁰.

Eronga nisbatan Eron Ozarnayjonini ajratib olib avtonom tuzishni qo'llayotgan bo'lsa,Turkiyaga nisbatan esa Kurdiston avtonomini qo'llardi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Moskvaning bu mintaqadagi ishlari yurishmaydi.Yaqin Sharqda ko'pgina arab davlatlar monarxiya tuzumida bo'lib,mamlakat qirollari sotsializmdan qo'rqrar edi.Shuning uchun Eron,Iroq,Saudiya Arabistoni,BAA va boshqalar AQSH bilan hamkorlikka o'tadi.SSSR mintaqadagi kurdlar masalasini ayniqsa qattiq quvvatlab keldi.Kurdalar Eron,Iroq,Turkiya va Suriyaning orasida bo'linib ketgan edi.Moskva uni birlashtirish uchun kurdلarni qurollantiradi.1952-yil Turkiya AQSH,Fransiya,Angliya bilan birgalikda Misrga yangi "O'rta Sharq jamoasi" nomli yangi harbiy blok tuzish tashabbusi bilan chiqdi.Turkiyadagi Menderes hukumati AQSHning Suvaysh kanalidagi manfaatlarini himoya qilib chiqdi,natijada esa ikki davlat o'rtasiga sovuqchilik tushdi.AQSH kanalni BMT ixtiyorida bo'lishini aytgan bo'lsa,Turkiya kanalni nazorat qilish uchun maxsus xalqaro tashkilot tuzish kerakligini aytadi.1956-yili Turkiya yangi "Suvaysh kanalidan foydalanuvchilar assotsiatsiasi" ga a'zo bo'lib kiradi.Bu assotsiatsiaga NATO ning barcha 14 davlati kirishi shart edi,shuningdek Turkiya va Eron ham.1956-yil kuzida Buyuk Britaniya,Fransiya va Isroil Suvaysh kanali muammosi sabab Misrga qarshi agressiya boshlaydi.Turkiya o'shanda agressorlar tarafida bo'ladi.Turkiya esa Suriyaga qarshi hududiy bahonalarni sabab qilib Suriyani NATO bilan birgalikda katta bosim ostida saqlay boshlaydi.Bunga sabab Suriyaning "Eyzenxaur doktrinasiga" qo'shilmaganidan boshlandi.Turkiya bosh

⁶⁰KIRIYEV, TurkiyaningXXasrdagitarixi,-Moskva, 2007.278-bet,

vaziri Jalol Bayar Suriyaga qarshi harbiy intervensiya uyushtirish masalasi bo'yicha Iroq qiroli Feysal, Iordaniya qiroli Abdulla bilan ushrahuvlar o'tkazadi. Turkiya qo'shinlari Suriya chegarasida yig'iladi. AQSHning oltinchi floti Suriya qirg'oqlariga yaqinlashtiriladi. Suriya juda qiyin ahvolda qoladi. Hukumat ba'zi arab davlatlari va sotsialistik davlatlardan to'g'rirog'i SSSRdan yordam so'raydi. SSSR darhol hamkorlikka rozi bo'ladi. SSSR AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Isroil davlatlarini harbiy harakatlarni to'xtatishni qattiq talab qiladi va har qanday yo'l bilan bo'lsa ham bu davlatlarni himoya qilishini bildiradi. Shu vaqtda Misr prezidenti Abdul Nosir Misr harbiy kuchlarini Suriya armiyasiga yordamga yuborish haqida qaror qabul qiladi. Misr armiyasi Suriyadagi butun hududlarga joylashadi. Livan va Saudiya Arabistoni ham Suriyaga harbiy yordam berishga qaror qiladi. 1958-yilda Livanda fuqarolar urushi boshlanadi. Yaqin Sharq davlatlari Livandagi vaziyatni muhokama qilish uchun Istanbulda yig'ilishadi. Aynan o'sha kuni 14-iyul kuni Iroqda harbiy to'ntarish o'tkaziladi. Istanbul yig'ilishida ko'proq amerikaparast davlat rahbarlari Livandagi vaziyat, Iroqdagi to'ntarish va SSSRning mintaqadagi ta'siri haqida so'zlashadilar. Menderes hukumati AQSH bilan birgalikda Iroqqa bostirib kirishni taklif qiladi. SSSR harbiy tajovuzdan Suriyani himoya qilganidek Iroqni ham himoya qilib chiqadi. 31-iyul kuni hukumat agentligi TASS ning e'lon qilishicha Sovet davlati Iroqqa tashqi tajovuzdan himoya qilish uchun harbiy yordam berishni bildiradi. O'shanda Turkiyadagi Menderes vaziyatga real baho berib Iroq Respublikasini tan olishga majbur bo'ladi. 1958-yil 23-oktabrda bo'lib o'tgan "Bag'dod pakti" yig'ilishida paktning shtab-kvartirasini Bag'doddan Anqaraga ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Turkiyaning bu harakatlari uning arab davlatlariga aralashgan oxirgi harakati sifatida qabul qilinadi. Chunki uning G'arb davlatlari bilan arab davlatlariga qarshi olib brogan harakatlari uning arab davlatlari bilan aloqalarining o'ta yomonlashishiga olib keldi.

Turkiyada 1960-yil 27-mayda sodir bo'lgan harbiy harakatida eski hukumat ag'darildi. Harbiylar hukumatni butunlay yangiladi. Arab davlatlari bilan aloqalarni yaxshilashga harakat boshladi. Inqilobdan keyin harbiylar o'rtasida

bo'linish sodir bo'ldi. Gursel va Menderes boshchiligidagi hukumat AQSH foydasiga ishlasa, polkovnik Turkish boshchiligidagi guruh panturkizm g'oyalari va arab davlatlari bilan yaqinlashish tarafdori edi. Ular o'rtasida katta mojarolar bo'lib o'tdi. AQSH madadi birinchi guruh g'alabasiga katta ta'sir o'tkazdi. Lekin ikkala guruh manfaatlari Turkiya tashqi siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Kurd muammosi, Kipr masalasi, Isroil va Arab muammosi Anqara tashqi siyosatining yo'nalishida asosiy faktorlar bo'ldi. Kurdlar masalasi tufayli Iroq va Turkiya o'rtasida munosabatlar rivojlangandi, lekin 1958-yili Iroqdagi davlat to'ntarishi va Iroqning "Bag'dod pakti"dan chiqishi ikki davlat aloqalarini yomonlashtirdi. Iroqdagi bu to'ntarish, kurdlarning harakati Turkiyadagi kurdlariga ham ta'sir qilishi mumkin edi. Shuning uchun Turkiya Eron va Iroq bilan kurd masalasi bo'yicha muzokaralarga kirishdi. 1963-yil bahorida uch davlat rahbarlari Bag'dod va Anqaradagi rasmiy doiradagi uchrashuvlarida kurdlarning qurollanishi va siyosiylashuviga qarshi hamkorlikda qarshilik ko'rsatishga kelishib olishdi. Muzokaralar natijasida uch davlat ofitser va maxsus xizmatlaridan tashkil topgan harbiy komitet tashkil etildi. Bu komitetning maqsadi hukumatga qarshi harakat qilgan kurdlarni nazorat qilish va ularni bosimda ushlab turish edi. 1960-yillardan Yaqin Sharqda siyosiy vaziyat o'zgara boshlaydi. Arab davlatlarining sotsializm tomon yuz o'girishi kuzatiladi. Bunga arab-isroil urushi AQSHning esa Isroilni qo'llashi sabab bo'ladi.

Kipr mojarosi ham Turkiyaning turklar yashaydigan qismini o'z tasarrufiga olish edi. NATOning maqsadi esa bu orolni O'rta Yer Dengizidagi muhim harbiy baza tashkil qilish edi. Turkiyaning bu harakati yana arab davlatlari bilan aloqalarni sovuqlashtirib yubordi. Misr prezidenti J.A. Nosir Kiprning greklar yashaydigan qismiga yordam berishga qaror qiladi. Shu maqsadda Kipr prezidenti Makarios 1964-yil kuzida Aleksandriyaga tashrif buyuradi. Ikki davlat rahbarlari "Siyosiy hamkorlik" haqida shartnoma imzolashadi. Shunday qilib o'tgan asrning ikkinchi yarmida Turkiya Yaqin Sharq mintaqasida G'arb va NATO ta'siri ostida faol ishtirok etib keldi. Turkiya uzoq vaqtdan beri Yevropa Ittifoqiga a'zolika intilib keladi, ammo bir qancha to'siqlar bunga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalari ikkinchi jahon urushidan keyin qaytadan yangi shaklda shaklandi. Bu davrda Turkiyaning mintaqadagi birorta davlat bilan aloqalari bir tekis davom etgani yo'q. Turkiyaning mintaqada hech qanday qalin aloqalarga asoslangan hamkorlari yo'q edi. Qo'shni davlatlar bilan mavjud bo'lgan muammolar ular bilan aloqalar yaxshilanishiga yo'l qo'ymadi.

- 1) Hududiy muammolar-Eron, Suriya, Gretsiya, Kipr oroli, Kavkazdagi muammolar.
- 2) Kurd muammosi-Eron, Suriya, Iroqda ko'p millionli kurdlar borligi sabab Turkiya hukumati ularning qo'shib birgalikda hukumatga qarshi harakat olib borishidan qo'rqardi.
- 3) Eron va Suriya Turkiya hukumatiga qarshi kurd yetakchilariga boshpana berib ularni qo'llab turdi.
- 4) Isroil muammosi-Turkiyaning Isroil davlatini musulmon davlatlar ichida birinchi bo'lib tan olgani va aloqarni rivojlantirishga urinishi arab davlatlari noroziligiga uchradi. Bu o'z-o'zidan aloqalar taqdirini belgilab berdi.
- 5) Turkiyadagi g'arbparast g'arbonsa davlat qurayotganligi va mintaqadagi davlatlar ikkinchi darajaga tushib qolganligi edi.

Turkiya bu davr mobaynida na G'arbning to'la qonli a'zosi bo'la oldi na Sharqning. Turkiyaning aytib o'tganimizdek NATO va AQSHning kuchli ta'sirida bo'lishi, Yaqin Sharq siyosiy hayotida AQSH manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish arab davlatlarining ishonchini yo'qotdi. Lekin, G'arbgga ham to'la qo'shila olmadi.

1) Turkiyaning musulmon davlat bo'lgani eng katta to'siqlardan biri, chunki Yevropaning aholisi kamayib ketayotgan davlatlar islom omilidan judayam qo'rqadilar.

2) Turkiyadagi musulmon aholining butun Yevropa bo'ylab tarqalishi va shunday ham og'ir ahvolga ketib borayotgan davlatlarda musulmon aholisining mahalliy fuqarolardan ortib borishi

3) Agar Turkiya a'zolikni qabul qilinsa unga ta'sir o'tkazish bir muncha qiyinlashadi, chunki Turkiya ham bu ittifoq ichida o'z obro'sini ortirishga teng huquqli a'zo sifatida harakat qiladi

Umumiy xulosalar

Turkiya va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan aloqalar tarixi uzoqqa borib taqaladi. Usmoniylar sultonligi arab mamlakatlarini zabt etgandan so'ng ular o'rtasida aloqalar rivojlana boshladi. Arab davlatlari hududlari Usmoniylar nazorat ostida Birinchi jahon urushigacha saqlanib qoldi. Keyinchalik ular Angliya va Fransiya yordami evaziga mustaqillikka erishdi.

Otaturk sultonlikni bekor qilgandan so'ng davlat siyosatini butunlay G'arbga qaratdi. U eski imperiyachilikni davom ettirmadi. Bunga o'sha vaqtdagi siyosiy vaziyat ham yo'l qo'ymadi. Turkiya bu paytda og'ir iqtisodiy ahvolda edi. Shuning uchun Sharqdan bu vaqtda hech narsa ololmasdi. Otaturk vafotidan so'ng boshlanib ketgan Ikkinchi jahon urushi va hukumat tepasiga boshqa rahbar kelishi bilan Tashqi siyosat ham o'zgara bordi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiya Yaqin Sharq maydoniga yangicha shaklda o'z tashqi siyosatini amalga oshira boshladi.

Turkiyadagi ikki siyosiy qarama-qarshilik: islomistik va g'arbparast partiyalar o'rtasidagi kurash hech qachon tinmadi. Ulardan qaysi biri hukumat tepasiga kelsa o'z siyosatini olib borar edi. Ko'pincha diniy partiyalar harbiy inqilob bilan ag'darildi. Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan aloqalarida islom omilini ham aytib o'tishimiz kerakki, bu omil mamlakatni doim Sharqqa, islomga

kuchli e'tiqodga undab kelmoqda. Ikki marta bo'lib o'tgan arab-isroil urushi davomida Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan aloqalari yomonlashib ketdi. Chunki, Turkiya bu urushda Isroilni qoralab uning bosqinshilik harkatlariga norozilik bildirib, arab davlatlari tomonidaligini aytsa ham amalda hech qanday amaliy ishga o'tmaydi. Ammo Isroilni G'azo sektoridagi qirg'inga sabab bo'layotgan portlatishlari Turkiyaning keskin noroziligiga uchradi. Turkiya Falastinga har tomonlama yordam bera bosladi. Turkiyaning maqsadi Falastinni o'z ta'siri ostiga olish edi.

Turkiyaning Misr bilan aloqalari arab-isroil urushida yomonlasha boshladi. Sovuqchilikning eng yuqori cho'qqisi Suvaysh kanali inqirozi boshlanganda yetdi. 1956-yil G'arb davlatlari va Turkiya Misr prezidenti J.A. Nosirning kanalni milliyashtirish haqidagi qaroridan norozi bo'lib Misrga qarshi harbiy intervensiya uyushtiradi. Ular kanaldan foydalanish erkin bo'lishini talab qiladi. Vaziyat urushgacha borib yetganda Misr prezidenti Sovet davlatidan yordam so'raydi. Faqatgina Sovet davlatining jiddiy ogohlantirishlari ortidan harbiy harakatlar to'xtatiladi. AQSH va Angliya Misrdagi pozitsiyasini butunlay boy beradi. Turkiya hukumati kurd inqirozi sabab o'z qo'shinini bir necha o'n marta Iroq va Suriyaga olib kerdi. Ikkala davlat hududidagi kurdلarning siyosiy harakatlari Turkiyani cho'chitib qo'yadi. Shuning uchun ularni bostirishga harakat qiladi. 1990-yilda S. Husaynning Kuvaytga bostirib kirgani sabab AQSH BMT tinchlikparvar bayrog'i ostida Iroqqa qarshi harbiy harakatlarni boshlaydi. Turkiya hukumati o'z harbiy bazalarini AQSHga berib turadi.

2002-yilda Turkiyadagi parlament saylovlarida Erdog'an partiyasining g'olib bo'lishi Turkiyanin Yevropa Ittifoqiga qo'shilishga besamar qilinayotgan harakatlarini to'xta boshladi. Erdog'an va Davudo'g'li Turkiyaning mintaqadagi avvalgi boy berilgan pozitsiyasini qayta tiklashga harakat qila boshladi. Shu maqsadda ular Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalarni qaytadan rivojlantira boshladi. Mintaqada siyosiy liderlikka davogarlik qilmoqda. Panturkizm g'oyalari ham kuchaya boshladi. Hozirda ular o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik har doimgidan ham zarur. Chunki Turkiya mintaqadagi barqarorlikni saqlashdagi o'rni

juda ham muhim. Bundan har ikkala tomon ham manfaatdor. Shu maqsadda amaldagi hukumat Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalar rivojini yangi bosqichga ko'tarish yo'lida harakat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014. 40b.
2. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida. –T.:O'zbekiston, 1996.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.6. –T. O'zbekiston, 1998. –429 b.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.10. –T.: O'zbekiston, 2002. –432 b.
5. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. –T.12 –T.: O'zbekiston, 2004. –400 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O'zbekiston, 1997. – 326.b.

7. Karimov I.A. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida so'zlangan nutq. // «Xalq so'zi». 2010 yil 22 sentabr.

2. Ilmiy adabiyotlar.

2.1 O'zbek va rus tillaridagi adabiyotlar.

1. Qosimov. B. Turkiyatarixi Toshkent. 2003.
2. Балашов Ю. А., Вагин М. В., Колобов О. А., Корнилов А. А., Международные отношения на Ближнем Востоке XX века-Нижний Новгород-2002 с 144
3. Егорова А. А., Новейшая история стран Азии и Африки (1945–2004). Ростов н /Д : 2005. — 574 с.
4. Ибрагимов С. Международный терроризм как фактор угрозы безопасности Республики Узбекистан. Дисс, на соискание ученой степени канд, полит, наук. –Т., 2005. –118 с.
5. Информационно-аналитическое издание. Выпуск IX / Под ред. Л.В. Савина. М.:МГУ, 2011. 231 с.
6. Казакханов Х. Международно-правовые аспекты борьбы с финансированием терроризма. Дисс, на соискание ученой степени канд.полит. наук. –Т., 2008. –134 с.
7. Кизюков С. «Курдская проблема» во внешней политике Турции. Космополис. 2007. 128 с.
8. Киреев Н.Г., История Турции XX век. М.: ИВ РАН, Крафт, 2007. 608 с.
9. Киреев Н.Г., Метаморфозы правящей элиты Турции / Политическая элита. М., 2003. 578 с.
10. Сотниченко А.А., Турция: геополитическая ось Евразии // Геополитика: М., 74 с.

2.2. Xorijiy tillardagi adabiyotlar.

11. Bahri Yilmaz. The Revolutions in Turkey's Near Abroad-New York-1998 p.217.
12. Fahrettin Sümer Turkey's Changing Foreign Policy –Iraq. 2013 p.28.

13. Hale William and Özbudun Ergun, Islamism, Democracy and Liberalism in Turkey. UK., Routledge, 2010.p-117.
14. Kenan Aksu Turkey:A Regional Power in the Making. W., 2008. P-219.
15. Madeleine K, Modern Turkey: People, State and Foreign Policy in a Globalized World . Abingdon. UK., 2012. p-107.
16. Abraham S., Relations with Near East . New York. 2012. p.101.
17. William Harris.Turkey and its neighbours 2014.p-312.
18. Çarkoğlu, Ali and Hale William , The Politics of Modern Turkey. Karolina.2007. p-229.
19. ŞabanKardaş. TurkeyandtheGulfDialogueintheMiddleEast –İstanbul. 2002 - p.8.
20. Bahattin Demir, Namik Kemal Dinç, Kürdistan Malûmâtı. İstanbul. 2006. s-217.
21. Kenan Aksu. Politika ve tarih. Ankara. 1997. s-374.
22. Çağdaş Türkiye Tarihi Araştırmaları Dergisi İstanbul. 2013-s-319.
23. Patricia Carley A Conference Report.Turkey’s Role in the Middle East-Washington-1995. p-37.

Internetmanbalari

24. www.ziyo.uz.com
25. www.ziyonet.uz
26. www.trt.tr
27. www.iimes.ru